

TARIX VA SHAXS

A. MUHAMMADJONOV, Q. RAJABOV

AMIR TEMUR

Ikkinci nashri



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2015

94(575.1)(092) - Tapux

M96

UO'K: 94(575)(092) Amir Temur
KBK 63.3(50')4
M-81

Taqrizchilar:
tarix fanlari doktori *Shohista O'ljayeva,*
G'ulom Karimiy

2016/9 | V'star Navoiy
mildagi
A 576 | O'zbekiston MK

ISBN 978-9943-01-908-9

© Abdulahad Muhammadjonov, 2015
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2015

Biz kim, Mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim, millatlarning eng qadimi va eng ulug'i Turkning bosh bo'g'inimiz.

Amir TEMUR

Amir Temurdek tarixiy shaxslarni, sarkarda va sohibqironlarni tarix taqozosi, shu zamon talablari, kerak bo'lsa, zamon ehtiyoji hayotga olib keladi va ul zotlarning fazilat-xususiyatlarini namoyon qilishga zamin yaratadi. Bunday qonuniyatni ko'plab misollarda tasdiqlash mumkin.

O'zbekistonning bugungi ozodligini mustahkamlash davrida Amir Temur biz uchun buyuk davlat asoschisi sifatida qadrlidir. U davlat poydevorini qurgan, davlatning huquqiy asoslarini barpo etgan. Uning davlatchilik borasidagi fikrlari nafaqat o'z davri, balki kelgusi avlodlar uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Islom KARIMOV





SO‘ZBOSHI

Insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan mashhur sarkarda, buyuk davlat arbobi sohibqiron Amir Temurning dunyoga kelishi, hayotiy faoliyati va avlodlarga qoldirgan benazir merosi haqida so‘z yuritilar ekan, avvalo, shuni ta’kidlash joizki, uning buyuk dahosi insoniyat o‘tmishida sodir bo‘ladigan oddiygina hayotiy voqeа yoki kundalik hodisalardan mohiyatan hamda oqibatan tubdan farq qilgan.

Amir Temur dastlab Kesh (Shahrisabz) muzofoti va Qashqadaryo vohasining ko‘kalamzor o‘tloqlari-yu maf-tunkor tabiati, chopqir yilqi va tulpor uyurlariga shaydo bo‘lib, yoshlik chog‘laridanoq o‘ta chapdast chavandoz, nishonni mo‘ljalga bexato ola-



digan mergan sifatida shakllangan. Shu bois u zamonasining nihoyatda jasoratli va kuchli, zabardast harbiy yo'lboshchisi bo'lib voyaga yetdi.

Movarounnahrdek aziz yurti Chingizzon boshliq mo'g'ul bosqinchilarining hujumlari oqibatida oyoq osti etilib, erkinligidan mahrum qilingach, buyuk sarkarda sohibqiron mamlakatdan yog'iyni quvib chiqarish, yurt hududlarini mustahkamlash, Turonda kuchli, markazlashgan buyuk davlatni tashkil etish vazifasini uddaladi. Tارixa yangi bosqichda sodir bo'lgan keskin o'zgarishlar, shubhasiz, o'sha zamon talabi, ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hamda ma'naviy hayoti bilan uzviy birikkan holatda, chambarchas uyg'unlashgan vaziyatda namoyon bo'ldi.




SOHIBQIRONNING TUG‘ILISHI VA TARIX SHOHSUPASIGA CHIQISHI

Amir Temur tarixiy manbalarda *Temur*, *Temurbek*, *Amir Temur* va *Sohibqiron* shuningdek, *Amir Temur Ko‘ragon*, *Sohibi jahon* (Olam egasi) hamda *Sohibi adl* (Adolat o‘rnatuvchi) kabi qator ulug‘ va qutlug‘ nomlar bilan ham tilga olinadi. Yevropa mamlakatlarida esa Tamerlan nomi bilan shuhrat topgan. Bu nomlar asosida Amir Temurning ulkan hayotiy jasorati muhrlangan. Chunki mazkur buyuk tarixiy shaxs Vatan ozodligi va mustaqilligi, xalqining tinchligi va erkinligi, mamlakatning butunligi va obodligi yo‘lida faoliyat ko‘rsatgan, markazlashgan buyuk sal-

tanat tashkil etib, uni oqilona va odilona boshqargan. U janglarda o'ng oyog'i va o'ng qo'lidan yaralangan edi.

Amir Temur Kesh (hozirgi Shahrisabz) shahri yaqinidagi Xo'ja Ilg'or qishlog'i (hozirgi Yakkabog' tumani)da 1336-yil 9-aprel kuni dunyoga keldi. Uning kindik qoni to'kilgan joy qadimda Kushjuyi obigar, ya'ni Zilol suvli chashma nomi bilan yuritilgan. Mazkur hayotbaxsh chashma suvlari tufayli bu maskan atrofida aholi to'planib, qishloq qad ko'targan, keyinchalik bu joy Xo'ja Ilg'or nomi bilan yuritila boshlagan.

Sohibqironning to'liq ismi *Amir Temur ibn Amir Tarag'ay ibn Amir Barquldir*. Uning onasi "poshsha, poshshaxon, sulton og'o" ma'nolarini anglatuvchi Takina Xotun (aslida Tegina) ismi bilan atalgan. Takina Xotun Buxoro ulamolarining peshvosi mavlono Sadr-ash-Shari'a, ya'ni shariat ulug'i nomi bilan shuhrat topgan qonunshunos olim Ubaydulloh al-Buxoriy



ibn Toj ash-Shari'a Mahmudning qizi bo'lgan. Mazkur sharofatli ayol Buxoroning solih farzandi, Keshning jasur onasi hisoblangan.

Amir Temurning otasi Tarag'ay (to'g'rirog'i To'rg'ay) No'yon (noib yoki o'n ming qo'shin boshlig'i) va amakisi Hoji Barlos turkiy barlos urug'ining biy (boshliq, oqso-qol)lari va yirik mulkdor amirlaridan edi. Hatto, Amir Muhammad Tarag'ay Chig'atoy ulusining e'tiborli beklaridan hisoblangan. Uning ajdodlari Kesh viloyatida hokimlik qilishgan. Shu bois Amir Temurning otasi yilda bir marotaba Ili (Elsuvi) daryosi bo'yida buyuk xon tomonidan chaqiriladigan yurt beklarining qurultoyiga taklif etilar va u bunday yig'lnlarda muttasil qatnashar edi. Sharafuddin Ali Yazdiyning ta'riflashicha, Tarag'ay olimlarga, xayrli ishlarni amalga oshiruvchi taqvodor kishilarga marhamatli va mehribon bo'lib, ularning majlislarida ishtirok etardi. Tarag'aybek piri Shamsuddin Kulolga, ayniqsa, chu-

qur ehtirom ko'rsatgan. Keyinchalik shayx Kulol Amir Temurning ham piri bo'lган.

Sohibqironning yoshligi kindik qoni to'kilgan zamin – Keshda kechgan. U yoshlik chog'laridayoq chavandozlik va ovga ishqiboz bo'lib, kamondan ni-shonga o'q uzish, ot choptirib, qilich-bozlik qilish va "go'yi-chavgon" (ot ustida o'ynaladigan tennisga o'xhash o'yin)larda faol qatnashib, turli-tuman harbiy mashq va erkin harakatlar bilan mashg'ul bo'lishni nihoyatda yoqtirar edi. Shu asnoda Amir Temur tulporlarni saralab ajrata oladigan mo-hir chavandoz va dovyurak bahodir bo'lib voyaga yetadi.

Amir Temur tabiatan og'ir-bo-siq, teran fikrlovchi va nihoyatda idrokli hamda ziyrak, kishilardagi qobiliyat, fazilat, ayniqsa, samimiyatni tezda fahmlab oladigan inson bo'lган. Mana shunday fazilatlari tufayli u o'spirinlik chog'laridayoq tengqurlari orasidan sadoqatli do'st-larni ajratib ololgan. Uning tevaragiga

bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlar-ri to'planishib, birqalashib o'ynashar, mashq qilishar, musobaqalarda ishtirok etishar, sekin-asta navkar bo'lishib, harbiy guruhga birlashib, shakllanishgan va voyaga yetishgan. Uning guruhida Abbos Bahodir, Jahonshoh bek, Qimori Inoq, Sultonshohbek, Hindushoh, Qarqara va boshqalar bo'lgan. Keyinchalik ular Sohibqironning safdoshlariga aylanib, uning ko'p sonli jangovar qo'shinida asosiy lashkarboshilar sifatida faoliyat ko'rsatganlar.

Amir Temur ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan: ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan. Dovrug'i Qashqadaryo vohasi bo'ylab keng yoyilgan. Yosh Temurning aql-u zakovati, shijoat va shuhrati uni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan Amir Xizr Yasovuriy va Amir Qazag'on bilan yaqinlashtira-

di. Tarixchi Xondamirning yozishicha, otasi Amir Tarag‘ay o‘g‘lini 1355-yilda avval Amir Joku Barlosning qizi Nurmushk (Nuryog‘di) og‘oga, so‘ngra o‘sha yili Qazag‘onning nabirasi va Amir Husaynning singlisi Uljoy Turkon og‘oga uylantiradi. Keyingi nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi Amir Husayn o‘rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo‘g‘ullarga qarshi kurashadilar.

Amir Temurning Movarounnahrni ozod qilib, uni birlashtirish yo‘lidagi harakati XIV asrning 60-yillarida boshlangan edi. Chunki o‘sha yuz yillikning 50-yillari oxirida mamlakatda mo‘g‘ul amirlarining o‘zaro kurashi avj olib, Amir Qazag‘on o‘ldirilgan, Movarounnahrda siyosiy parokandalik kuchayib, og‘ir tanglik hukm surmoqda edi. Xondamirning “Habib us-siyar” nomli kitobida bayon etilishicha, o‘sha vaqtda ulus o‘nga yaqin mustaqilbekliklarga bo‘linib ketgan. Samarqand viloyatida Amir Bayon Sulduz, Keshda Amir Hoji Barlos, Xo‘janudda Amir

Boyazid Jaloyir, Balxda Uljoy Bug'a Sulduz, Shibirg'onda Muhammadxoja Apardi Nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi Amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisori Shodmon huddida Amir Husayn va Amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qiladilar.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi – Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrdagi og'ir vaziyatdan foydalanib, bu huddidlarda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Mo'g'uliston xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxoja 1360–1361 va 1365-yillarda Movarounnahrga bir necha bor bostirib kiradilar. Ularning bosqinchilik yurishlari va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Biroq Movarounnahr amirlari xalqqa bosh bo'lib, bosqinchilarga qarshi kurashga jur'at eta olmaydilar. Ularning bir qismi dushmanga bo'ysunadi, ikkinchi qismi esa el-yurtni tark etib, qo'shni maml-

katlardan boshpana izlaydi. Kesh vi-loyatining hokimi Amir Hoji Barlos Xurosonga qochadi. Mana shunday o'ta og'ir pallada siyosat maydoniga Amir Temur kirib keladi. Mo'g'ullarga qarshi kurash uchun kuchlar nisbati teng emasligini hisobga olgan 24 yoshi- li Amir Temur 1360-yilning boshida Tug'luq Temur tomonidan yuborilgan beklar bilan G'uzorda uchrashadi.

Tug'luq Temurxon va uning Mavarounnahrga bostirib kelgan qo'shini boshliqlari bilan uchrashuvga undagan sabablar Amir Temur tildan keyinchalik "Temur tuzuklari"da quyidagicha ifodalangan: "*Men ham Xurosonga yoki bo'lmasa Tug'luq Temurxonning qoshiga borish-bormasligimni bilmay ikkilanib qoldim.*

Shu hol asnosida pirim [Tayobodiy]dan maslahat so'rab xat yozgan edim, ushbu mazmunda javob yozib yuboribdilar: "To'rtinchi xalifa (Hazrati Ali ibn Abu Tolib) dan, unga tangrining karam-u marhamati bo'lsin, bir kishi so'rabdiki, osmon -

kamon, yer – kamon ipi, hodisalar o‘q bo‘lsa, insonlar ul o‘qqa nishon bo‘lsa, otg‘uchi [esa] – Xudoyi taolo bo‘lsa, uning quadrati yana ham ulug‘ bo‘lsin, odamlar qayerga ham qochadilar?” Xalifa javob qilib: “Odamlar Tangrining qoshiga qochsinlar”, debdilar. Shunga o‘xhash sen ham hozir Tug‘luq Temurxonning oldiga qochg‘il va qo‘lidagi o‘qyoyini tortib olg‘il”.

Bu javob kelishi bilan ko‘nglim ko‘tarilib, yuragim bundan quvvat oldi va Tug‘luq Temurxon qoshiga borishga ahd qildim. Lekin biron ishni qilmoqchi bo‘lsam, kengashib olgach, keyin Qur’ondan fol ochardim va Qur’on hukmi bilan ish qilur edim. Tug‘luq Temurxon oldiga borishdan avval Qur’ondan varaq ochsam, “Surayi Yusuf” alayhissalom chiqdi va Qur’oni majid hukmiga amal qildim”.

Keyinchalik Amir Temur o‘zining bu harakatini aholini mo‘g‘ullar to-

monidan talon-toroj etishdan himoya qilishning bir yo'li, ya'ni puxta o'ylangan reja (tadbir) deb baholadi. Yuz ming otliq askar qilolmagan ishni bir to'g'ri tadbir bilan amalgamoshirish mumkin ekan, deb o'z fikrini izohlaydi buyuk sarkarda.

Xullas, Amur Temur xon xizmatiga o'tib, uning yorlig'i bilan o'z viloyatining dorug'asi (boshlig'i) etib tayin qilinadi. Bunday donolik bilan Amir Temur mo'g'ullarning navbatdagi talon-torojining oldini olgan, mammalakat va aholini falokatdan qutqargan edi.

MOVAROUNNAHR UCHUN KURASH

Mo'g'uliston xonining Movarounnahr ustidan hukmronligi uzoq davom etmadi. 1361-yilning kuzida Tug'luq Temur bu yerda o'g'li Ilyosxojani xon sifatida qoldirib, Amir Bekkichik va Temurbekni uning xizmatiga tayin etib, o'z yurti Mo'g'ulistonga qaytadi. Ammo yosh xon davlat ishlariga e'tiborsiz bo'lib, ko'p vaqtini mai-shatda o'tkazardi. Hayotiy tajribasi boy bo'lgan Amir Bekkichik bundan foydalanib qoladi. Saroydag'i o'z taraf-dorlarining madadiga tayanib, butun hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Bundan Temurbek norozi bo'ladi.

Xullas, Movarounnahrning hukmdori etib tayin qilingan Ilyosxoja va uning lashkarboshisi Amir Bekkichik bilan Amir Temur murosa qila olmay, mamlakatni tark etishga majbur bo'ladi (1361-y.). So'ngra qay-nag'asi, Balx hokimi Amir Husayn bilan birlashib, kuch to'plab, avval

bebosh amirlarga qarshi ichki, so'ng mo'g'ullarga qarshi tashqi kurash olib boradi.

Shu vaqt dan e'tiboran Temurbek o'z taqdirini xuddi o'zidek yosh, shi-jroatli Amir Husayn bilan bog'laydi. Dastlab ular Xorazmga yo'l olishadi, biroq omad ulardan yuz o'giradi. 1362-yili Mohan (hozirgi Mari) ya-qinidagi Mahmudiy degan joyda turkman Alibekning qo'liga tushgunlaricha, cho'l-u biyobonlarda ko'p sarson-sargardon bo'ladilar. Ular 62 kun uning qo'lida tutqunlik azobini boshdan kechiradilar. Alibekning niyati ularni eronlik savdogarlarga sotish bo'lib, karvon kelishini kutayotgandi. Biroq, har ikkalalari Alibekning aka-si Muhammadbekning yordami bilan ozodlikka erishadilar. Amir Temur va Amir Husayn o'zaro bahamjihat harakat qilishga kelishib olib, Buxoro yaqinidagi Zandane qishlog'ida vaqtincha ajralishadilar. Amir Temur lashkar to'plash maqsadida o'z yurti Keshga, Amir Husayn esa Amudar-

yoning so'l sohiliga yo'l oladi. Ular biroz vaqtdan keyin Xurosonning Xilmmand daryosi bo'yidagi Garmsir viloyatida uchrashishga qaror qiladilar va ma'lum muddat o'z qo'shini bilan Seyiston hokimi Malik Qutbiddin xizmatida bo'lishadi.

1362-yilning kuzida Seyiston viloyatida bo'lib o'tgan jangda Amir Temur o'ng oyog'i va o'ng qo'lidan jarohatlanadi. Shunga qaramay, Amir Temur va Amir Husayn ikki yil davomida Ilyosxoja boshliq mo'g'ullar bilan bir necha bor jang qiladilar. Nihoyat, 1364-yilning oxirida ular mo'g'ul qo'shinarini Movarounnahrdan quvib chiqarishga muvaffaq bo'ladilar.

Lekin, unumdor va serhosil Movarounnahr yerlarini qo'ldan chiqarishni istamagan Ilyosxoja 1365-yilning bahorida Turkiston tomon yana qo'shin tortadi. Toshkent bilan Chinnoz (Chinas) oralig'ida Chirchiq daryosi bo'yida 22-may kuni ikki o'rtada shiddatli to'qnashuv sodir bo'ladi. Tarixda u "Loy jangi" nomi bilan shuh-

rat topadi. Chunki o'sha kuni kuchli jala quyib, jang maydoni (janggoh) botqoqlikka aylangan, hatto, suvoriylar loyga botib qolgan. Jangda Amir Temur qo'shini shiddatli hujum qilib, dushman qo'shinining o'ng qanotiga qaqqhatqich zarba berayotgan bir paytda, Amir Husayn o'z navkarlarini raqibning so'l qanotiga qarshi tashlash o'rniga, jang maydonini xiyonatkorona tark etadi. Amir Temur esa mag'lubiyatga uchrab, chekinishga majbur bo'ladi.

Bu g'alabadan so'ng Ilyosxoja hech qanday qarshilikka uchramay, Xo'jand va Jizzax (Dizak) kabi yana bir qancha shahar va mavzelarni egallab, Samarcand ustiga yurish qiladi. Samarcand o'sha paytlarda katta qo'shinga qarshilik ko'rsata olmasdi. Shaharning na mustahkam istehkomlari, na qurollangan si pohiysi bor edi. Bek va amirlar shaharni tark etgan edilar. Biroq, xalq mo'g'ullarga qarshi ko'tariladi va shaharni mudofaa qilish uchun astoydil bel bog'laydi.

Uzoq davom etgan mo‘g‘ullar hukmronligiga qarshi ko‘tarilgan bu xalq harakati tarixda sarbadorlar harakati nomi bilan shuhrat topgan. Sarbadorlar shahar mudofaasini boshqarishni o‘z qo‘llariga oladilar. Ular ga madrasa tolibi Mavlonozoda Samarqandiy, jun tituvchilar mahallasining oqsoqoli Abu Bakr Kalaviy Naddof va mergan mavlono Xo‘rdaq Buxoriylar boshchilik qiladilar.

Tarixchi olim Muiniddin Natanziy o‘zining “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy” (“Muiniy tarixlari tanlanmasi”) asarida Samarqand sarbadorlari faoliyatiga batafsil to‘xtalib o‘tadi. U sarbadorlar qo‘zg‘oloni va ularning yo‘lboshchisi Mavlonozoda haqidagi quyidagi muhim ma’lumotlarni keltiradi: “*Movarounnahr lashkari mo‘g‘ullardan mag‘lub bo‘lgach, dil-laridagi qo‘rquvning zo‘ridan Movarounnahrni o‘z holiga tashlab, (yuqorida) zikr qilinganidek, Jayhundan kechib o‘tdi. Mo‘g‘ul lashkari yetib kelayotganligi haqidagi ovozalar ku-*

chayib, samarqandliklar vujudini larzaga soldi. Jamiki xos-u om, od-diy odamlar va a'yonlar o'zaro kengashmoq maqsadida jome masjidiga to'planishdi. Dillarini qoplagan qo'rquv va vahima zo'ridan qo'l va oyoqlari shalvirab, ojizona zor-u iltijodan boshqa nima qilarini bilmasdilar. Buxoro zodagonlaridan bo'lgan bir odam ilm tahsili uchun Samarqandga kelgan bo'lib, avom xalq o'rtasida bir qadar e'tiborga ega edi. Odamlarni iztirobli holatda ko'rgach, u minbarga dadil qadam qo'yib yuqori ko'tarildi va shahar akobirlari tomoniga yuzlanib dedi: "Olam ishlaridan xabardor va sardorlik vazifasini o'z uhdasiga oladigan bir kishisiz ojiz avomning ishi o'nglanmaydi. Ayniqsa, bugun xaloyiq qattiq g'alayonga keldi. Mamlakatning haqiqiy hukmdori osoyishta zamonda (xalqdan) boj-u xiroj yig'ardi. Bugun kuchli dushman bostirib kelganida esa, bechora raiyatni boshliqsiz qoldirib, o'z jonini omon saqlashni ixtiyor etdi. Shu qa-

dar og‘ir balolar yuzlanib, hodisalar yomg‘iri kulfat to‘fonini ergashtirib kelgan paytda kofirlarning musulmonlardan juzya yig‘moqlari va islomning ismat uyidagi yuzi berk ayollarini cho‘rilikka haydab ketmoqlariga yo‘l qo‘ymoq (bizga) ravo emasdir. Bas, bu borada barcha fikr yuritmog‘i vojibdir. Barcha dinlarda tasdiqlangan va olam ahliga ravshanki, jihodga otlanib o‘zini (yov) zulmdan xalos qilmoq va musulmonlar osoyishtaligi uchun qayg‘urmoq xuddi besh vaqt namoz o‘qimoq va razon oyida ro‘za tutmoq kabi farzdir hamda jamiki musulmonlarning bu ishda madad ko‘rsatmoqlari vojib erur. Mahshar kuni Yaratgan egam-uning sharafi ziyoda bo‘lsin – siz ulug‘lardan (jihod kunitagi) muomala tarzingizni so‘rab-surishtirgusidir. Hozir ushbu masjid, ya’ni Olloh uyi-da yig‘ilgan avom xalq va a’yonlar orasidan kim bu xatarli ishni bajarmoqqa bel bog‘lab, bundoq (og‘ir) sinovni o‘z zimmasiga oladi? Kim-

ning ko'nglida nima gap bo'lsa ayting, illo din ishi bundoq paysalga solinishiga rozi bo'l mangiz". U bu xilda ommani ta'sirlantiradigan va omma ko'ngliga yetib boradigan nutq so'zlagach, avommunnos orasidan bayakbor hayqiriq ko'tarildi va barcha unga tahsinlar yog'dirdi. Ammo zodagonlar va barcha ulug'lar bu vazifani bajarmoqdan o'zlarini butunlay chetga tortdilar va birontasi ham bu ishni o'z zimmasiga olmadi. Bir necha lahzadan so'ng boyagi kishi belidagi qilichini sug'urib bo'yninga qo'ydi va avom tarafga yuzlanib dedi: "Ey musulmonlar, men o'zimni sizlar uchun fido qildim va bu halokatli ulkan ishni o'z zimmamga oldim. Siz nima deysiz?".

Avom baravar suron ko'tardi va yakdillik bilan uning da'vatini qabul etib, uning nomiga qasamyod qilishdi. Shundan so'ng u minbardan tushib, masjid ahliga imomlik qildi va shijoat bilan barcha (qilinishi lozim bo'lgan) ishlarni ro'yxatga olib, tartibga solishga kirishdi. Odamlar

uni butun borliqlari bilan shu qadar sevishardiki, nimaiki buyurmasin, o'sha ishni bajo keltirmoq uchun ishtiyoq va rag'bat bilan jonlari boricha tirishardilar. U ko'chalarning boshiga ba'zi joylarda xodalar qoqib, ba'zi joylarida esa tuproq tortib va g'ishterib, ko'chabandlar yasashni buyurdi va bu joylarga muhofizlar qo'ydi. O'zi ham kecha-yu kunduz g'oyat hushyor bo'lib, mahallalar va shahar atrofini tinimsiz aylanar va hech bir joyda bir necha lahzadan ortiq to'xtalmasdi".

Mudofaachilar shaharda mo'g'ullarga qaqshatqich zarba beradilar. Ilyosxoja dastlab Samarqandni, so'ngra butun Movarounnahr hududini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Shaharda xalq hokimiyati o'rnatiladi va ayrim islohotlar o'tkaziladi. Badavlat, mulkdor kishilarning mol-mulki musodara qilinib, kambag'al-yo'qsillarga tarqatiladi. Jon boshidan olinadigan juzya solig'i bekor qilinadi. Bunday ayrim o'zgarishlar hukmdor tabaqa vakillari-

ning keskin noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada Samarqandda beqarorlik vujudga keladi.

Sarbadorlar boshliq samarqandliklarning Mo'g'uliston xoni Ilyosxoja ustidan g'alabasi va shahardagi beqarorlik to'g'risidagi xabar Amir Temur bilan Amir Husaynga borib yetadi. Amir Temur qishni Qarshida, Amir Husayn esa Amudaryo bo'yida o'tkazib, 1366-yil bahorida Samarqanda yo'l oladilar va shahar yaqinidagi Konigil mavzesiga kelib tushadilar. Beklar sarbadorlarning yetakchilari bilan muzokara olib boradilar. Sarbadorlarning dushman ustidan qozongan g'alabalaridan mamnun bo'lganliklarini va ular bilan uchrashmoqchi ekanliklarini bildiradilar. Uchrashuvning birinchi kunida beklar ularning sharafiga ziyofat berib, sha'niga hamd-usanolar aytadilar. Biroq, ertasi kuni Abu Bakr Kalaviy Naddof bilan Xo'rdaq Buxoriylar dorga tortiladilar. Mavlonozodani esa Amir Temur kafo lat berib qutqarib qoladi. Shu tariqa

sarbadorlar yo'lboshchisiz qoldirilib, harakat bostiriladi. Movarounnahrda Amir Husaynning hukmronligi o'rnatiladi. Ammo ko'p vaqt o'tmay Amir Husayn bilan Amir Temurning o'zaro munosabati keskinlashib, ochiqdan ochiq nizoga aylanadi. 1366–1370-yillar davomida ular o'rtasida bir necha bor o'zaro to'qnashuvlar ham bo'lib o'tadi. Amir Temurning obro'-e'tibori yil sayin kuchayib borayotganidan xavfsiragan Amir Husayn Balxga qaytib, shaharning qal'a devorlari va istehkomlarini mustahkamlashga kirishadi. Balx, Qunduz va Badaxshondan ko'p sonli lashkar ham to'playdi. Kesh va Nasaf (Qarshi) viloyatlariga bosh bo'lgan Amir Temur ham Amir Husaynga qarshi hal qiluvchi jangga hozirlik ko'radi.

AMIR TEMUR – MARKAZLASHGAN DAVLAT ASOSCHISI

Movarounnahrda XIV asrning 60-yil-larida hukm surgan og‘ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlash-tirib, kuchli bir davlat tashkil etishni taqozo etmoqda edi. Amir Temur zamonasining bunday talabini o‘zga amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi va Amir Husayndan farqli o‘laroq, markazlashgan davlatning hayotiy mo-hiyatini chuqurroq anglay olardi. Shuning uchun ham, u, o‘z faoliyatining dastlabki bosqichidayoq barcha sa'y-harakatlarini Movarounnahrda mar-kazlashgan saltanat tuzishga qaratadi. O‘z maqsadini amalga oshirishda u ruhoniylar, harbiylar, savdogarlar va shahar hunarmandlari tabaqalariga suyanadi. Amir Temur tarqoq mam-lakatni birlashtirishga kirishar ekan, kurashni, avvalo ichki g‘animlarini bo‘ysundirishdan boshlaydi. 1370-yil-ning bahorida u Balx hukmdori Amir

Husaynga qarshi askar tortadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo (Biyobondasht) qishlog'iga yetganida makkalik shayx Sayyid Baraka Amir Temurga peshvoz chiqadi. Shayx Baraka uning faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliv hokimiyat ramzi – katta nog'ora (tabl) bilan yalov (davlat bayrog'i)ni tortiq qiladi. Shubhasiz, bu sharofatli voqeal muhim siyosiy ahamiyatga ega edi. Chunki tortiq qilingan bu ikki ramz uning buyuk kelajagidan bashorat qilganday edi.

Balxga yetar-yetmas O'rpuz mavzesida Amir Temur beklar-u amirlar bilan mashvarat (kengash) o'tkazib, el-yurt endilikda Movarounnahr podsholigi deb atalishini e'lon qiladi. Ko'pchilikning xohish va ixtiyori bilan o'sha davr qonun-qoidalalariga ko'ra, chingiziyzodalar avlodidan bo'lgan Suyurg'at mish o'g'lon Movarounnahr podsholigi taxtiga o'tqaziladi.

Qo'shin Balx shahriga yetib bor-gunicha unga yo'l-yo'lakay yangidan

yangi kuchlar kelib qo'shiladi. Shu as-noda Amir Husaynning aksariyat amirlari uni tark etadilar. Jangda Amir Husayn qo'shini yengiladi. Ikki kunlik qamaldan so'ng, 1370-yilning 10-aprelida Balx shahri Amir Temurga taslim bo'ladi. Amir Husayn asir olinib, qatl etiladi. Bu g'alabadan so'ng Amir Temur Movarounnahrning chin-giziylardan bo'lgan hukmdori Qozon-xonning qizi Saroymulkxonim (Bibixonim)ni o'z nikohiga oladi. Xon qiziga uylanganligi munosabati bilan Amir Temur "Ko'ragon", ya'ni "Xonning kuyovi" unvonini oladi.

1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning yoshlikdan birga ham-roh bo'lgan quroldosh do'stlari, shuningdek, piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Unda Amir Temurning hukmronligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi. Garchi Suyurg'at-mishxon mamlakat xoni deb atalgan

bo'lsa-da, yangidan tashkil etilgan davlatni amalda Amir Temurning o'zi boshqardi. Viloyatlardagi hokimiyatni o'g'il va nabiralari hamda yaqin amirlari orqali idora qildi. Yorug' dunyoga kelib, voyaga yetib kamol topgan ota shahri Kesh (Shahrisabz)ni emas, balki Movarounnahrning siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida katta o'rinn tutgan Samarqand shahrini davlat poytaxtiga aylantiradi. 1370-yilning yozidayoq shahar devori va davlat qarorgohi – qal'asi tiklanadi, saroy va qasrlar bino qilinadi.

El-yurt, mamlakat muhofazasi hamda boshqaruvida, shuningdek, karvon yo'llari bo'y lab osoyishtalik o'rnatishda harbiy kuchning ahamiyatini yaxshi tushungan Amir Temur qo'shining tarkibiy tuzilishiga alohida e'tibor beradi. U qo'shinini isloh qilar ekan, avvalo, *amir* va *amir ul-umaro* kabi oliy darajali harbiy unvonlarni joriy etadi. Amir, ayniqsa, lashkarboshilarni tanlash va ularni tarbiyalash, harbiy qismlar va ularning joylashish tartibi,

navkar, sarboz va suvoriylarni qurollantirish hamda intizom masalalariga jiddiy e'tibor beradi, chunki ichki va tashqi siyosatida, asosan, qo'shinga suyanardi.

Amir Temur qo'shini o'ntalik askariy birikmalar asosida tuzilgan harbiy qismlardan iborat edi. Lashkar *tuman* – o'n minglik; *hazora* – minglik; *qo'shin* – yuzlik va *ayl* – o'nlik birikmalarga bo'lingan. Amir Temur o'n minglik askariy qismni boshqarish uchun *tuman og'asi*; minglik qismlar uchun *mirihazora*; yuzliklar uchun *qo'shimboshi* va o'nliklar uchun esa *aylboshi* kabi harbiy mansablarni ta'sis etadi. Ularning haq-huquqlari, oylik maoshini darajasiga mos ravishda belgilab beradi. Janglarda bahodirlik ko'rsatib, g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilaydi. Biror qo'shinni yenggan, biror mamlakat yoki viloyatni zabit etgan amir *bahodirlik* martabasi, davlat kengashlarida ishtirok etish huquqi hamda biror shaharning noibligi bilan siylangan. As-

kariy qismlarni viloyatlardan to'plash bilan *tavochi* mansabidagi amaldor shug'ullangan.

Amir Temur qo'shinda qat'iy harbiy intizom o'rnatgan. Harbiy amir, qo'shinboshi yoki aylboshi jang qilish uslublarini puxta bilishi shart bo'lgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishi, jangda ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala qilishi va adolatli bo'lishi lozim edi.

Harbiy yurish vaqtida oldinda *xabarchilar*, ular ortidan *yasovul* bo'linmasi, undan keyinroqda *mang'lay* – avangard qism harakat qildi. Mang'lay bilan qo'shining asosiy qismlari oralig'ida esa qo'mondonning harakatdagi qarorgohi va uning yonatrofida *zaxira* (rezerv) qismlar joylashgan bo'lib, u *izofa* deb yuritilgan. Amir Temur qo'shining asosiy jangovar qismlari: *markaz*, o'ng – *barong'or* va so'l – *javong'or* qanotlardan iborat bo'lgan. Har bir qanotning oldida bittadan qo'shimcha

qo'riqchi mang'lay – *avangard*, yon tomonida esa bittadan qo'shimcha askariy qo'shilmalar – *qunbollar* bo'lar edi. Shu tariqa qo'shin yetti qism – *qo'llardan* iborat edi. Shubhasiz, yetti qo'lga – qismga taqsimlab joylashtirish tartibini harbiy taktika tarixida birinchi bo'lib Amir Temur joriy etdi. Bu qo'llar jangda mustaqil harakat qilib, faqat qo'shin qo'mondoniga bo'ysungan.

Amir Temur Turon-u Turkiston, Eron-u Fors va Arabiston mamlakatlari tarixini chuqur bilgan. Hayotda amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanday bilimni, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda u soha bilimdonlari va ulamolar bilan maslahatlashgan. Amir Temurning so'zi bilan aytganda, davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat (maslahat), qolgan bir ulushi qilich bilan amalga oshirilgan.

Xullas, Amir Temur davlatni boshqarish va harbiy daholik sohasida

o‘ziga xos boshqaruv tizimini yaratib, shu asosda barpo etgan buyuk sultanat bilan jahon mamlakatlari hukmdorlarini lol qoldirgan edi.

Sohibqiron hokimiyat tepasiga kelgach, dastlabki vaqtlardayoq mamlakatda ro‘y bergan og‘ir iqtisodiy tanglikni bartaraf qilish uchun eng avvalo, soliq tizimini tartibga soldi. Davlat soliqlarini yig‘ishda aminlar, kolontarlar va soliq yig‘uvchilarni ra’iyatga nisbatan insof va adolatli bo‘lishga, qonunga xilof ish tutmaslikka chaqirdi. Chunki sultanatning barqarorligi ko‘p jihatdan ra’iyatning hol-ahvoli, uning davlat va hukmdorsultonga bo‘lgan sadoqatiga bog‘liq edi. Ra’iyatni himoya qilish esa qonun bilan mustahkamlandi. Qonun barchaga teng va barobar hisoblangan. Amir Temur nafaqat o‘z xalqini, balki zabt etilgan mamlakatlarning aholisini ham imkon boricha qonun himoyasiga olgan, ularni asirlik va talon-torojlardan saqlagan.

Amir Temur Movarounnahrni mo‘g‘ullar hukmronligidan ozod etib, bu qadimiy mamlakatda mustaqil davlat barpo qilgan bo‘lsa-da, ammo mazkur diyorda hali barqaror tinchlik va osoyishtalik o‘rnatilgan emas edi. Bir tomondan, ayrim viloyat hokimlari Amir Temur hokimiyatini tan olishdan bosh tortib turgan bo‘lsalar, ikkinchi tomondan, mamlakatning sharqiy va shimoliy hududlari notinch edi. Mo‘g‘uliston bilan Oq O‘rda hukmdorlari Farg‘ona vodiysining sharqi, O‘tror, Yassi (Turkiston) va Sayram shaharlariga xavf solib, bu hududlarga tez-tez hujum qilar va aholisini talon-toroj etardi. Shuning uchun ham Amir Temur dastlabki yillarda mamlakat sarhadlari xavfsizligini ta‘minlashga katta ahamiyat berdi. Isyonchi amirlarga qarshi shafqatsiz kurash olib borilib, avval Shibirg‘on viloyati bo‘ysundirildi, so‘ngra Balx va Toshkent viloyatlari Amir Temur hokimiyatini tan oldilar. Ammo Xorazm Oq O‘rda hukmdorlariga tayanib, ha-

nuz bo‘ysunishdan bosh tortardi. Amir Temur Xorazmni Chig‘atoy ulusining ajralmas qismi deb hisoblab, uni o‘z davlatiga qo‘shib olish siyosatini tutdi. Ammo bu masala elchilar vositasida tinch yo‘l bilan hal etilmagach, Amir Temur Xorazm hududiga besh marotaba yurish qildi. Xorazmga 1371-yil iyunda Amir Temur birinchi bor harbiy yurish qildi. Nihoyat, beshinchi harbiy yurish natijasida Xorazm 1388-yilda uzil-kesil bo‘ysundirildi.

Shunday qilib, Amir Temur Mavarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijobjiy ahamiyat kasb etdi.

AMIR TEMUR – TURON DAVLATI HUKMDORI

Buyuk sarkarda Amir Temur butun mintaqani birlashtirib, yirik mar-kazlashgan davlatga asos soldi. Bu davlatning nomi Amir Temur va temuriylar davri tarixiy manbalarida (XIV–XV asrlar) *TURON DAVLATI* deb tilga olinadi. Biroq O‘zbekistonda hozirgi kungacha nashr etilayotgan turli tarixiy kitoblar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarida bu davlatning nomi mavhum tarzda Amir Temur va temuriylar davlati deb ko‘rsatiladi. Amir Temur tomonidan yoki uning yaqin va uzoq zamondoshlari tarafidan hech qachon u asos solgan davlat Amir Temur va temuriylar davlati deb aytilmagan.

Shu o‘rinda “*Turon*”, “*Turkiston*” va “*turk*” atamalari to‘g‘risida to‘x-talib o‘tishni joiz deb topdik.

TURON – turkiy xalqlar yashay-digan ulkan hududni anglatuvchi tarixiy atama, ijtimoiy-siyosiy va mada-

niy tushuncha. Turon atamasi bundan taxminan 2700–3000 yil oldin dastlab tur(k)lar yashovchi yurt – Tur yoxud Turkiston shaklida qo'llana boshlangan. “Avesto” tarixiy-adabiy va diniy yodgorligida ham u shunday ma'noda ishlatilgan. Turon mintaqasi jug'rofiy jihatdan Tinch okeanidan O'rta Yer dengizigacha, Shimoliy muz okeanidan Tibet va Himolay tog'larigacha, Anatoliyadan Shimoliy Hindistongacha bo'lgan ulkan hududi o'z ichiga oladi.

Turon so'zi qadimgi va ilk o'rta asrlarda geografik atama sifatida ham qo'llangan. Tabariy, Narshaxiy, Beruniy singari mashhur tarixchi olimlar va shoir Firdavsiyning asarlarida Turon va Eron davlatlari hamda ularning hududiy chegaralari xususida so'z boradi. Ayrimlar bu chegarani Amudaryo orqali o'tadi, deb yanglish ma'lumot qoldirishgan. Aslida Xuroson va Movarounnahr o'rtasidagi chegara chizig'i Amudaryodan o'tgan. Dastlab “Avesto”da qayd etilgan

“tur” etnonimi keyinchalik Markaziy Osiyo dasht va tog‘ yerlarida yashovchi chorvador aholi bilan bog‘langan. Olimlarning fikriga ko‘ra, turlar tu-shunchasi bu – saklar (massagetlar) ning dastlabki nomi bo‘lishi mumkin. Saklar (massagetlar) va ularga yaqin qarindosh qabilalar miloddan avvalgi VIII–V asrlarda Oltoy va Janubiy Sibir dashtlarigacha tarqalgan. Bu haqda arxeologik ma'lumotlar ham dalolat beradi va hozirgi Shinjon – Uyg‘ur muxtor o‘lkasida saklar yozuvlarining tarqalishi ham shu fikrni tasdiqlaydi. Mahmud Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, Koshg‘ar viloyatida XI asrda kansak tili saqlangan edi. Bundan tashqari, Sharqiy Turkistondagi Xo‘tan vohasidan topilgan yozuvlar “xo‘tan – sak hujjatlari” nomi bilan atalgan. Demak, Turon atamasini fa-qat O‘rta Osiyo hududining qadimgi atamasi deyish noto‘g‘ri bo‘ladi. Turon va turonliklar yurti tushunchasini yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan bepoyon hududlar bilan bog‘lash mumkin.

Rivojlangan so'nggi o'rta asrlar mualliflari Turon tushunchasini ham tarixiy, ham geografik ma'noda qo'llaganlar. Ko'plab tarixchi va geograflarning aytishicha, Turon – bu turklar (o'zbeklar) va boshqa turkiy xalqlarning yurti degan ma'noni bildirib, u keyinchalik o'z o'rnini Turkiston tushunchasiga bo'shatib bergen.

Turon barcha turkiy xalqlarning moziyda bo'lgan va istiqbolda bo'lishi nazarda tutilgan yagona buyuk yurtdir. Turon atamasi keyinchalik Turkiston tushunchasi bilan almashgan yoxud ular qariyb bir ma'noda qo'llaniladi. O'rta asrlarda Turon mintaqasining qoq markazida Movarounnahr va Xorazm o'lkalari joylashgan. Tarixdan ma'lumki, Movarounnahr va Xorazm bugungi O'zbekiston Respublikasi hududining asosiy qismini tashkil qilgan. Ayrim tarixiy manbalarda keltirilishicha, Turon davlatiga dastlab taxminan 3000 yil muqaddam Afrosiyob tomonidan asos solingan. Afrosiyob nomi turkiy manbalarda Alp Er

To'nga yoki To'nga Alp Er shaklida tilga olinadi. Afrosiyob turkiy xalqlar-ning dastlabki xoqoni, turkiy xalqlar bobokaloni hisoblanadi. Harbiy sarkar-da va davlat arbobi Afrosiyob Turon mintaqasida Buxoro, Samarqand, Romitan, Marv, Eronda Qazvin, Qum va boshqa shaharlarga asos solgan.

Alp Er To'nga (Afrosiyob) miloddan avvalgi VIII asrning oxiri-da Turon hududida sak-iksitlar yoki skiflar (turkiy qavmlar)ning dastlab-ki davlatini tashkil qiladi. Bu dav-lat Yevropa tadqiqotchilari tomonidan keyinchalik prototurk (ko'hna turklar) davlati deb nomlangan. Alp Er To'nga Turon dashtlarida (Osiyo va Yevropa qit'alarida) yashagan o'nlab turkiy urug' va qabilalarni yagona davlatga birlashtirdi. Turon davlatining dastlabki poytaxti qaysi shahar bo'lganligi o'sha davr manbalarida aniq ko'rsatilmagan. Tur(k)lar yashay-digan Turon davlatining ilk poytaxti Buxoro yoxud Samarqand bo'lganligini taxmin qilish mumkin.

Afrosiyob yashab o'tgan davr-dan 2200 yil keyin esa buyuk Amir Temur Turon davlatini qayta tiklab, uni markazlashgan yirik sultanatga aylantirdi.

Turon – keng ma'noda tur(k)lar yashagan ota yurt, tarixiy makon. Turon – tor ma'noda Turkiston mintaqasining qadimgi davr va o'rta asrlardagi umumiy nomi. Turon – Osiyo qit'asining eng katta pasttekisligi joylashgan jug'rofiy hudud. Tur (f) on – Sharqiy Turkistondagi Uyg'ur muxtor viloyati (hozirgi Xitoy)ga qarashli qadimiy shahar.

TURKISTON – asosan, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur kabi turkiy xalqlar va tojik xalqi azaldan yashab kelgan yurtning tarixiy nomi. Ilk yozma yodgorliklarda Turkiston atamasi dastlab Turon shaklida yozilgan. Qadimiy turkiy bitiklarda u Turk budun (Turk eli) shaklida qo'llanadi.

Turkiston – Markaziy Osiyoning turkiy xalqlar yashaydigan hududining

o'rta asr tarixiy-geografik adabiyotlarda uchraydigan nomi. Manbalarda u Turon va Turkiston atamalari o'rnida qayd etilgan. 639-yilda Turfonda tuzilgan sug'd hujjatida Turkiston atamasi O'rta Osiyo va Movarounnahr nomlaridan farqli ravishda nafaqat geografik, balki tarixiy va etno-geografik tu-shunchani anglatib, shuningdek, siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo'lgan. Arablarning mintaqaga yurishidan so'ng ham Turkiston toponimi o'zining siyosiy-huquqiy ma'nosini yo'qotmagan. Bu davrda Turkiston mintaqasining siyosiy sarhadlari Uzoq Shimol va Uzoq Sharqqa, Qarluq va Uyg'ur xoqonliklari hamda Arab xalifaligi bilan chegaradosh bo'lgan yerkargacha yoyilgan. Aynan shu hududlarda tashkil topgan turkiy davlatlar endilikda Turkiston nomi bilan VIII-X asrlarda arab tarixchi-geograflari asarlarida qayd etiladi. Bu paytdan boshlab Markaziy Osiyoning markaziy va janubiy viloyatlari (Amudaryo va Sirdaryo oralig'i) Movarounnahr deb atala boshlagan.

Qoraxoniylar davlati barpo etilishi bilan Turkiston davlati yana o‘zining sobiq hududlari doirasida deyarli qayta tiklanadi, uning janubiy sarhadlari Amudaryo bilan belgilanadi. G‘aznaviylar va Saljuqiylar kabi XI asrda yangi tashkil topgan boshqa turkiy davlatlar sultonlari ham o‘zlarini turkistonliklar (turklar) deb hisoblashgan. Mavarounnahr atamasi esa Turkiston mintaqasining bir qismi sifatida, ya’ni Qoraxoniylar, so‘ngra Xorazmshohlar, Chig‘atoiylar, Temuriylar va Shayboniylar davlatining bir qismi sifatida qarala boshlagan. Mahmud ibn Valining XVII asr boshlarida yozishicha, “*Turkiston – bu keng va ko‘ngilli yurtdir... bu yurtning uzunligi Sayhun daryosining qirg‘og‘idan Qoramurun dar-yosi qirg‘og‘igacha bo‘lib, bu yerni Mo‘g‘uliston nomi bilan ataganlar*”.

Mahmud ibn Vali Turkistonning yana bir nomi bu – Turon va uning aholisi turklar deb yozadi. Shu davr-

dagi Mo‘g‘uliston Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Oltoyni ham qamrab ol-gan. XIX asr o‘rtalarida Turkiston hudo-di (6 mln. kv.km atrofida) g‘arbda Ural tog‘lari etagi va Kaspiy dengizi, sharqda Olttoy tog‘lari va Xitoy, janubda Eron va Afg‘oniston, shimolda Rossiya imperiyasining Tomsk va Tобolsk guberniyalari bilan chegaradosh bo‘lgan.

Turkiston jahon tarixidagi siyosiy mojarolar natijasida asrlar davomida yaxlit makon doirasidan chiqib, 5 ta jug‘rofiy qismga bo‘lingan: *Markaziy Turkiston* (O‘zbekiston, Qoraqal-pog‘iston, Janubiy Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Tojikiston), *Sharqiy Turkiston* (Xitoyning Sinszyan – Uyg‘ur muxtor viloyati, Ichki Mo‘g‘uliston), *Janubiy Turkiston* (Shimoliy Afg‘oniston, Tog‘li Badaxshon, Shimoliy Hindiston), *G‘arbiy Turkiston* (Shimoliy Eron – tarixiy Xuroson), *Shimoliy Turkiston* (Shimoliy Qozog‘iston, Tatariston, Boshqirdiston, Ural atroflari va Olttoy).

Turkiston – keng ma'noda turkiy xalqlar yashagan ulkan mintaqa. Turkiston – tor ma'noda hozirgi O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalari hududida vujudga kelgan davlatlarni umumlashtiruvchi nom, tarixiy atama. Turkiston – Janubiy Qozog'istondagi asosan o'zbeklar yashaydigan qadimiy shahar. Turkiston – O'zbekiston va Tojikiston respublikalari hududidagi tog' tizmasining nomi, Hisor – Oloy tog' tizmasiga kiradi. Turkiston – Buxoro vohasining Qizilqum bilan tutash qismining ilk va so'nggi o'rta asrlardagi jug'rofiy nomi.

Xullas, Turon yoxud Turkiston mintaqasining qoq markazida – bugungi O'zbekiston Respublikasi hududi joylashgan. O'zbekiston tarixan mavjud yaxlit Turonzamin, ya'ni Turkistonning uzviy bir qismi, markaziy qismidir.

TURK – Yer sayyorasining katta qismida azaldan yashovchi, yevropoid va mongoloid irqlariga mansub, islom va boshqa dinlarga e'tiqod qiluvchi

turkiy xalqlarni birlashtiruvchi etnik tushuncha. Turkiy xalqlarning ilk ajdodlari taxminan 4000–5000 yil muqaddam elat sifatida dastlab Turon mintaqasida (hozirgi O‘zbekiston Respublikasi bilan Mo‘g‘uliston, shuningdek, Rossiya Federatsiyasining Oltoy Respublikasi va Oltoy o‘lkasi oralig‘ida) vujudga kelgan. “Turk” atamasi (lug‘aviy ma’nosи – kuchli, baquvvat) ilk marta yozma manbalarда aynan shu shaklda 542-yili tilga olingan. Buyuk Turk xoqonligi (Ko‘k Turk xoqonligi) davlatiga 551-yilda asos solingan. U keyinchalik Sharqiylar Turk xoqonligi va G‘arbiy Turk xoqonligi kabi daylatlarga bo‘linib ketgan.

Turk – keng ma’noda Yer yuzidagi barcha turkiy xalqlarning umumiyligi bo‘lgan katta qavmning nomi. Turk(iy) – o‘zbek xalqining o‘rta asrlardagi tarixiy etnik nomi. Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu

Ali ibn Sino, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk daho lar turk, ya'ni o'zbek bo'lganligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Turk – o'zbek xalqi tarkibiga kirgan 92 bovli o'zbek qavm (urug')laridan birining nomi. Turk – tor ma'noda bugungi kunda Turkiya Respublikasida yashovchi millatning nomi.

Amir Temur XIV asrning 60–70-yillarida ana shunday buyuk xalq – turk xalqi (bugungi o'zbek xalqi)ning barlos urug'i vakili sifatida tarix sahnasiga chiqdi. U buyuk ajdodlari Afrosiyob, Botur Tangriqut (O'g'uzxon), Kujula Kadfiz, Attila, Bumin xoqon, Ismoil Somoni, Sotuq Bug'roxon, Sabuktegin, To'g'rulbek, Qutbiddin Muhammad singari o'z davrida yangi turkiy davlatga asos soldi. *Amir Temur* asos solgan turkiy (o'zbek) davlatning nomi *Turon davlati* edi. Amur Temur esa Turon davlati sultonini hisoblangan.

Biz xohlaymizmi, yo‘qmi, bu davlatning nomi bugungi kunda O‘zbekistonda va ayrim xorijiy davlatlarda aytilayotganidek Amir Temur va temuriylar davlati bo‘lgan emas, balki *Turon davlati* bo‘lgan. O‘z fikrimizni bevosita Amir Temur davrida yozilgan tarixiy asarlar, sohibqiron chiqargan farmonlar, u ishlab chiqqan tuzuklar va qoyatoshlarga yozdirgan turli bitiklar asosida isbotlashga harakat qilamiz.

1391-yili mart oyi oxirlarida Amir Temurning ikki yuz ming kishilik qo‘smini Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxonga qarshi harbiy yurish uchun Yassi (Turkiston), Qorachuq, Sabron orqali Sariq o‘zan (Sarisuv) mavzesiga chiqadi. Kuchli sel kelishi tufayli qo‘sini bir necha kun shu yerda makon topadi. Sel kamaygandan so‘ng sohibqiron qo‘sini daryodan kechib o‘tadi. Amir Temur ikki kechayu ikki kunduz yo‘l yurib, toliqqan qo‘sini bilan Ulug‘tog‘ (hozirgi Qo-

zog‘istondagi Qarsaqpay koni yaqinida-
gi Oltin cho‘qqi nomli tog‘) yonbag‘ri-
da hordiq olish uchun to‘xtaydi. O‘zi
esa xos odamlari hamrohligida tog‘ bo-
shiga chiqib, tevarak-atrof va yastanib
yotgan dashtga nazar tashlaydi hamda
bu yerda mazkur yurish haqida xotira
qoldirishga qaror qiladi. Amir Temur
Ulug‘tog‘ tepasiga tug‘ o‘rnatib, qa-
rorgoh tiklagan. U chiqargan farmoni
oliyga ko‘ra jangchilar atrof javonib-
dan xarsangtoshlar tashib kelib, mino-
rasimon inshoot quradilar. Usta tosh-
taroshlar ishga tushib, sohibqironning
To‘xtamishxonga qarshi qo‘sish tortib,
ushbu mavzega yetganligi tarixini tosh-
ga bitadilar. Toshtaroshlar xarsang-
toshga ikki tilda – arab va qadimgi
uyg‘ur tilida bitik yozganlar. Bitik 11
satrdan iborat bo‘lib, 8 satri qadimgi
uyg‘ur va 3 satri (Bismillahir roh-
manir-rohiym) arab harfidadir. Bitikda
hijriy 793 (milodiy 1391), qo‘y
yili yoz faslining o‘rtasida (Nizomid-
din Shomiyning “Zafarnoma” asarida
yozilishicha, 28-aprelda) Turon sultonni

Temurbek 200 ming kishilik o'rdusi bilan To'xtamishxonga qarshi safarga chiqqanligi va nishon sifatida shu qo'rg'onne bunyod ettirgani yozilgan.

Turkiy yozuvda qoyatoshga naqsh qilingan bitikning matni quyidagi-cha: "*Tarix yetti yuz to'qson uchta, qo'y yili yozning ora oyida Turonning sultonini Temurbek ikki yuz ming cherik bila islom uchun Bulg'or hokimi To'xtamishxonga qarshi yurdi. Bu yerga yetib, belgu bo'lzin deb bu yo'bani qo'pardi. Tangri nisbat bergay. Inshaolloh. Tangri er kishiga rahmat qilg'ay. Bizni duo ila yod qilg'ay*".

Ulug'tog' (Ulutov) hozirgi Qozog'iston Respublikasining Jezqazg'on shahridan 100 km. shimolda, Sari-suv daryosi shimolida joylashgan tog' hisoblanadi, XX asrning 30-yillarida Jezqazg'ondan 50 km g'arbdagi Qarsaqqay koni yaqinida, Qoramola tog'i yon-bag'rida yuqoridagi bitik yozilgan tosh topilgan. Bu bitikli tosh hozirgi

paytda Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj muzeyida saqlanadi.

Biz uchun eng muhim, mazkur toshbitikda Sohibqiron o‘zini “*Turonning sultonı Temurbek*” so‘zlari bilan tilga oladi hamda Turon mamlakati hukmdori ekanligini ta’kidlaydi. Amir Temur harbiy yurishlarining bevosita ishtirokchisi, tarixchi Nizomiddin Shomiy o‘zining “*Zafarnoma*” asari (1404-yilda yozilgan) “Amir sohibqironning Dashti Qipchoqqa yurishi bayonida” faslida To‘xtamishxonga qarshi harbiy yurish tafsilotlari va Ulug‘tog‘da sohibqiron yozdirgan bitik haqida quydagi ma’lumotlarni keltiradi: “*Jumodilavval oyining birinchi kuni (1391-yil 6-aprel) (daryoda) suv ko‘paydi. Bir necha kun to‘xtab turib, kechuv joyi izladilar. Suvdan o‘tib, oyning yigirma birida (26-aprel) lashkar Kichik Dog‘ (taxminan hozirgi Ko‘k-Tube)ga yetdi. U joydan ko‘chib, o‘rtada ikki kecha o‘tkazib, jum‘a kuni Ulug‘ Dog‘ (Ulug‘tog‘; Ulu*

Tou) mavzesiga yetdilar. Amir sohibqiron tog' ustiga chiqib, har yon nazar soldi. Atrof poyonsiz sahro va cho'li biyobon edi. U kuni shu joyda to'xtab, hamma lashkarga tosh keltirishni buyurdi, ular u kunlar tatrixini toshga naqsh qildilar, toki u nishona turar ekan, zamona sahifasida bu yurish zikri boqiy qolg'ay.

(Nazm:)

*Eshitdimki, go'zal tabiatli Jamshid
Chashma boshidagi bir toshga yozgan:
"Bu chashma boshiga bizdek ko'plar
kelganlar
Ko'zlarin ochib-yumguncha o'tib
ketganlar".*

Bu voqealar tafsiloti Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari (1424–1425-yillarda yozilgan) "Hazrat sohibqiron Dashti Qipchoq sari mutavajjih bo'lg'oni so'zi" faslida (Toshkent, "Sharq", 1997, 129–131-betlar) ham keltiriladi. Faqat Yazdiyning yozishicha, Amir Temur toshga

bitigini 1391-yil 28-martda o'yib yozdirgan.

Shu narsa qiziqliki, bu joylarga oradan ikki yuz yil o'tgach, 1582-yilda boshqa bir o'zbek hukmdori – Abdullaxon II (1534–1598) o'z qo'shini bilan kelgan. O'zini Turon davlati xoqoni hisoblaydigan Abdullaxon II Amir Temurning Dashti Qipchoqqa harbiy yurishlaridan yaxshi xabardor bo'lgan. Turon tarixida "quruvchi xon" sifatida o'zidan o'chmas iz qoldirgan Abdullaxon II ham sohibqirondan o'rnak olib, Amir Temur qurdirgan minora qarshisida, Ulug'tog' safaridan yodgorlik sifatida masjid qurdirgan. Bu haqda mashhur tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy (1540–1589) o'zining "Abdullanoma" asarida (1584–1588-yillarda yozilgan) shunday yozadi: "*Falak shukuhli shahriyor [Abdullaxon II] o'sha tog'ning tepasiga chiqib, u biyobonni uzunligi va kengligini Tangridan boshqa hech kim bilmas edi, nazar soldi. O'sha kuni (1582-yil 3-may) namozi peshingacha to'x-*

tab lashkarga buyurdiki, “Ko‘p tosh to‘plasinlar”. Buyrug‘ni bajarib to‘plangan toshdan oliv sha’n u makonda bir masjid bino qildilar. Shu bilan ro‘zg‘or sahifalarida u baland-qadr shohdan bir yodgorlik qoldir-dilar. Shunday ishni firdavsmakon, din-u dunyo qutbi shahriyor Amir Temur ko‘ragon, unga Tangrining rahmati va roziligi bo‘lsin, ham qilg‘on edi. U To‘xtamishxon muhorabasiga yo‘nalgan vaqtida, Xonbaliq toqqa yetganida, bir kun o‘sha tepada qaror topdi va askarga at-rofdan ko‘p tosh to‘plashni buyurdi. Ulkan minora kabi baland nishon ko‘tardilar va tosh taroshlaydiganlar Amir Temurning shu joyga kelgani ta’rixini yozdilar”.

Shunday qilib, Amir Temur 1370-yilda Turon davlati mustaqilligini qayta tikladi va muazzam bir turkiy davlat va sulolaga asos soldi. Sohibqiron asos solgan temuriylar sulolasini Turon davlatini 137 yil davomida boshqardi. Bu davlat XIV–XV asrlarda yaratil-

gan tarixiy asarlarda, sohibqiron va uning vakillari tomonidan chiqarilgan farmonlar va turli yorliqlarda, qo'shni mamlakatlarning hukmdorlari bilan olib borilgan o'zaro yozishmalarida Turon mamlakati, ba'zan Turon viloyati yoki Turon o'lkasi shaklida tilga olinadi.

TURON MAMLAKATI XAVFSIZLIGI YO'LIDA

Shuni ta'kidlash kerakki, bu davrda Turon davlati uchun eng kuchli xavf Oq O'rda va Oltin O'rda edi. Endilikda Amir Temur Oltin O'rdaga zarba berib, uni kuchsizlantirishga jiddiy harakat qiladi. Lekin u Jo'chi ulusini o'z davlatiga qo'shib olish niyatida emas edi. U Oltin O'rdaning Movarounnahrga tutashgan sharqiy qismini o'z ta'siri ostiga olish hamda uning poytaxti Saroy Berka orqali o'tadigan karvon yo'lini Movarounnahr tomon burib yuborishni ko'zlaydi. O'z maqsadini amalga oshirish uchun u

Jo‘chi ulusidagi ichki kurashdan ud-daburonlik bilan foydalanadi. O‘sha paytlar o‘zaro kurashlarda zarbaga uchragan chingiziylardan jon saqlash maqsadida To‘xtamish Samarqandga kelib panoh topadi. Amir Temur yordamida u Oltin O‘rda taxtini egallahsga muyassar bo‘ladi. Biroq keyinchalik To‘xtamish xoinlik yo‘liga kiradi va Amir Temurga qarshi ochiqdan ochiq kurashga o‘tadi.

Amir Temur Oltin O‘rda tomonidan kelayotgan xavfni bartaraf qilish uchun To‘xtamishxonga qarshi 1389, 1391 va 1394–1395-yillarda uch marta yurish qiladi.

1387-yili To‘xtamish Temurbekning Erondaligidan foydalanib, Amir Temur saltanatining markaziy qismlariga hujum qiladi. Dastlab zarba Oq O‘rdanining markazi Sig‘noq tomonidan beriladi. Sabronni egallay olmagan qo‘sishin O‘trorga yo‘l oladi va u yerda Temurbekka tegishli uncha katta bo‘limgan askariy guruhni mag‘lub etib, Buxoro va Samarqand viloyatlari

hududiga bostirib kiradi. To'xtamishxon ikkinchi yo'nalishdagi zARBANI Xorazm orqali amalgal oshiradi. Buxoro va Samarqand shaharlari qurshovda qolganiga qaramay, To'xtamishxon bu shaharlarni olishning uddasidan chiqolmaydi. Asosiy qurolli kuchlar bilan Sherozda turgan Temurbek qamalda qolganlarga 30 ming kishilik madad jo'natadi. 1388-yilning fevralida Amir Temur butun qo'shinini to'plab, dushmanga qarshi yo'lga chiqadi. To'xtamish esa Temurbek bilan yuzma-yuz to'qnashishga yuragi dov bermay, zudlik bilan Dashti Qipchoqqa qaytib ketadi.

To'xtamishxonning Oltin O'rdadan bir necha ming chaqirim masofada joylashgan Buxoro va Samarqand viloyatlariga qilgan hujumi, uning muayyan bir hudud uchun emas, balki umuman Temurbekka qarshi olib borayotgan siyosatining natijasi ekanligini Amir Temur to'g'ri anglab yetgan edi. U 1389-yilda Dizak (hozirgi Jizzax)ning Achchiq

mavzesida To'xtamishxon qo'shiniga qarshi birinchi jiddiy zARBani beradi. Ba'zi adabiyotlarda keltirilishicha, To'xtamishxon boshchiligidA qozoq cho'llari va Sirdaryo bo'yLAB harakat qilgan ulkan qo'shInning ilg'or qismi 1389-yil boshida Aris daryosining etagida joylashgan Zarnuq shahri yaqinida Temurbek tomonidan is-kanjaga olinib, tor-mor etiladi. Bu vaqtدا To'xtamishxon qo'shInining asosiy qismi bilan Sirdaryoning o'ng sohilidagi Sayron shahrini egallashga behuda urinmoqda edi. So'ngra har ikkala lashkarboshi o'rtasida 1391-yilning 18-iyunida Qunduzcha jangi va nihoyat, 1395-yil 15-17-aprelda Shimoliy Kavkazda uchinchi yirik jang - Terek daryosi bo'yida bo'lib o'tadi. Bu ikkala jangda ham To'xtamishxon qo'shini qaqshatqich mag'lubiyatga uchraydi.

Ayniqsa, Terek (Terak) daryosi bo'yida uch kun davom etgan shiddatli jang oqibatida To'xtamish o'zini o'nglab ololmaydigan darajada kuch-

li zarbaga uchraydi. To'xtamish ustidan qozonilgan g'alabaning e'tiborli tomoni shundaki, Amir Temur Idil (Volga)ning Turotur kechuvi bo'yida chingiziylardan O'russxonning o'g'li Qo'yrichoqga qo'lga kiritgan sobiq Jo'chi ulusini suyurg'ol (mulk) sifatida in'om etadi. Rossiya tarixchilari B.D. Grekov va A.Yu. Yabuvskiylarning ta'kidlashicha, Amir Temurning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi nafaqat O'rta Osiyo uchun, balki butun Sharqiy Yevropa, shuningdek, rus knyazliklarining birlashishlari uchun ham buyuk ahamiyat kasb etgan edi.

Amir Temur o'z sultanatining janubiy chegaralari muhofazasini kuchaytirish maqsadida Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya) ustiga uch marta qo'shin tortadi. Bu yurishlar tarixda *uch yillik*, *besh yillik* va *yetti yillik urushlar* deb nom olgan. Uch yillik (1386–1388) harbiy yurish natijasida Eron (Fors), Janubiy Ozarbayjon, Iroqning shimoliy qismi,

Gurjiston va Armaniston (Van ko‘li atrofi)dagi yerlar egallangan.

Sohibqiron o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lib, moli omon to‘lagan shaharlarga qo‘sish kiritmagan va talafot yetkazmagan. Erondagи muzaffariylar, jaloyiriylar sulolasи vakillarining ayirmachilik harakatlari, Mozandaron va Janubiy Eronda ko‘tarilgan qo‘zg‘olonlar tufayli Amir Temur Eronga yana yurish qilgan. Bu besh yillik (1392–1396) urush davomida G‘arbiy Eron, Iroqi Ajam va Kavkaz egallangan.

Amir Temurning Hindiston ustiga qilgan yurushi (1398-yil may – 1399-yil mart) qariyb 11 oy davom etgan. Sohibqiron Hindistondan katta o‘lja, shu jumladan, 120 ta jangovar fil bilan qaytgan. O‘ljalarining bir qismi qo‘singa tarqatib berilgan. Qolgani Samarqand va Kesh shaharlarida olib borilayotgan qurilishlarga sarflangan.

Amir Temurning yetti yillik (1399–1404) harbiy yurishlari na-

tijasida Shomning Halab (Aleppo), Xums, Baalbek (Ba'albek), Dimishq (Damashq) kabi yirik shaharlari va Iroqi Arabning Ubuliston o'lkasi (qadimgi Kappadokiya) bilan Bag'dod, shuningdek, hozirgi Turkiyaning katta qismi zabit etildi.

Keng ko'lamli harbiy yurishlar natijasida Amir Temur sultanatining chegarasi usmonli turk sultonligi sarhadlarigacha borib taqaladi. Sohibqiron usmonli turk sultoni Boyazid Yildirim bilan munosabatni yaxshilash tarafdoi bo'lgan. Ziddiyatlarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish maqsadida ikki tomon o'rtasida bir necha bor maktublar almashish tashabbuskori ham Amir Temur edi. Sulton Boyazid esa har safar qaysarlik va manmanlik qilgani, hatto, Amir Temur shaxsiga no'maqbul so'zlarni ham o'z maktublari-da yozganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Buning ustiga, Boyazid qoraqo'yunlilar, muzaffariylar va jaloyiriylarning Amir Temurga qarshi harakat-

larini qo'llab-quvvatlagan. Shu omillar tufayli bu ikki turkiy davlat o'rtasida to'qnashuv sodir bo'lishi muqarrar edi.

Amir Temur bilan Sulton Boyazid qo'shinlari o'rtasidagi hal qiluvchi jang 1402-yil 20-iyulda Anqara yaqinidagi Chibuq mavzesida bo'lib o'tadi. Bu jang tarixda *Anqara jangi* nomi bilan ta'riflanadi. Har ikki tomonidan hammasi bo'lib 360 ming nafar, shu jumladan, sohibqironning 200 ming, usmonlilar hukmdorining 160 ming nafar askari qatnashadi. Uch kun davom etgan shiddatli jangda Amir Temur kuchlari turk qo'shinini tormor etadi. Sulton Boyazid, o'g'illari Muso va Iso Chalabiylar asir olinadi. G'olib Amir Temur Boyazid askarlarini ta'qib etib, Onado'lu (Anatoliya) yarimoroli va O'rta Yer dengizining shariqiy sohilida joylashgan Izmir shahrini egallaydi hamda salibchilarning Yaqin Sharqdagi so'nggi qarorgohiga barham beradi. Sohibqironga Misr ham o'z tobelligini izhor etadi. Vizantiya va

boshqa xristian olamidan Boyazidga to'lanadigan boj-u xirojlar endilikda Amir Temurga beriladigan bo'ldi.

Asirga olingan Boyazid Yildirimga Amir Temur shohona hurmat va ehtirom ko'rsatdi. Boyazid vafoti (1403-yil 9-mart)dan so'ng vorislariga beqiyos muruvvatlar qildi. O'g'illari Sulaymon, Muso va Isolarga otasining mulklarini suyurg'ol qilib hadya etdi.

Bu ikki buyuk davlat o'rtasida sodir bo'lган jiddiy siyosiy voqealarni sabrsizlik bilan muttasil kuzatib borayotgan Yevropaning yirik davlatlari hukmdorlari – Fransiya qiroli Karl VI (hukmronlik davri: 1390–1422), Angliya qiroli Genrix IV (hukmronlik davri: 1399–1413) hamda Kastiliya va Lion qiroli Genrix III (hukmronlik davri: 1390–1407) Yildirim ustidan qozonilgan buyuk g'alaba bilan Amir Temurni tabriklab, unga muboraknomalar yo'llaydilar. Chunki sohibqiron endigina uyg'onayotgan Yevropaga keskin xavf solib turgan usmonli turk-

lar davlatiga zarba berib, qit'a davlatlarining xaloskoriga aylangan edi.

AMIR TEMURNING HARBIY YURISHLARI VA SARKARDALIK MAHORATI

Buyuk sarkarda Amir Temurning harbiy yurishlari orasida *Qunduzcha jangi* alohida ajralib turadi. Bu jang Amir Temur qo'shini bilan Oltin O'rda xoni To'xtamishxon lashkarlari o'rtasida 1391-yil 18-iyunda, hozirgi Samara bilan Chistopol shaharlari oralig'ida, Volga daryosining sharqiy sohilida joylashgan Qunduzcha mavzesida bo'lib o'tgan. U o'rta asr lardagi eng yirik janglardan hisoblanadi. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, To'xtamishxon qo'shini Amir Temurnikidan ancha ko'p bo'lgan. Amir Temur qo'shinida 200 ming askar bor edi. Qunduzcha jangida har ikki tomondan 500 mingga yaqin jangchi ishtirok etgan.

Amir Temur qo'shinini an'anaviy tartib – markaz, so'l va o'ng qanot ko'rinishidan o'zgacha tartibda tuzishga qaror qiladi va jangovar tartibning yangi usulini qo'llaydi. Markazdagi qo'lga amalda amir Sulaymonshoh qo'mondon bo'lgan. Uning ortidan Muhammad Sulton bosh bo'lgan qo'l joylashgan, bu qo'l ketidan sohibqiron qo'l ostida bo'lgan 20 ta qo'shin (bo'luk) zaxiradagi qism sifatida borgan. Barong'orga Mironshoh Mirzo, qunbul (qanot)ga amir Hoji Sayfiddin barlos, javong'orga Umarshayx Mirzo, unga qunbul sifatida amir Berdibek, Saribug'o qo'llari joylashgan. O'g'ruq va zaxira qismlariga qo'mondonlikni Amir Temur o'z zimmasiga olgan. Uning qo'shini markaz ortida bo'lib, kim yordamga muhtoj bo'lsa, o'shang ko'makka borishga tayyor turgan. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, jang taqdirini ushbu harbiy qism hal etgan ekan.

To'xtamishxon qo'shinini 5 ta qo'lga taqsimlab, ularga Jo'chi xona-

doniga mansub shahzodalar hamda eng oliv darajadagi amirlarni qo'mondon qilib tayinlaydi.

Jang kuni erta tongda Amir Temur qo'shini ko'z o'ngida otdan tushib, Allohdan madad tilab ikki rakaat namoz o'qigan. Bayroq va tug'larni ko'targan qo'shin nog'ora chalib, suron ko'tarib, ulkan jang karnaylari sadolari ostida yurishni boshlaydi. Umarshayx qo'mondonligi ostidagi so'l qanot To'xtamishxon tomonidan berilgan zarba natijasida mushkul ahvolda qoladi, raqib qo'shini so'l qanotni yorib o'tib, orqa tarafdan hujum uyushtirishga erishadi. Amir Temur bu paytda qipchoqlarning asosiy qismini ta'qib etmoqda edi, lekin u zaxiradagi qism bilan so'l qanotga yordamga keladi va dushman uloqtirib tashlanadi. Shundan so'ng To'xtamishxon asosiy zarbani Shayx Temur Sulduz boshchiligidagi qismlarga qaratadi va uning favjini yakson etib markazni yorib chiqadi, lekin qarshisidan Umarshayx Mirzo

qo'shini chiqib muhorabaga kirishadi. Hoji Sayfiddin barlos boshchiligidagi qanot qo'shinlari g'anim javong'origa hujum qilib, uning qarshiligini sindiradi. To'xtamishxon Hoji Sayfiddinga qarshi kuch tashlaydi, biroq sohibqiron ularga qarshi amir Jahonshohni yordamga yuboradi.

Arab tarixchisi Ibn Arabshohning yozishicha, To'xtamishxon qo'shining bir qismi ikki lashkarboshi o'rtasida chiqqan nizo tufayli jang maydonidan qochgan. Qunduzcha jangi sohibqiron foydasiga hal bo'lgan. To'xtamishxon qochgan, uning ketidan amirlar, sardorlar va qolgan-qutgan qo'shin ham ergashgan. Amir Temur nihoyat otdan tushib, Allohga hamd-u sano aytgan. Sohibqiron har o'n otliqdan yettitasini dushmanni ta'qib etishga jo'natgan. Volga daryosigacha ta'qib etilgan Oltin O'rda jangchilarining aksariyati asir olingan. Jangdan keyin bir oyga yaqin dam olgan Amir Temur katta o'lja bilan Movarounnahrga qaytgan.

Mazkur jang misolida ham buyuk Amir Temurning sarkardalik mahorati va harbiy san'atini bilib olish mumkin. Bu jang jahon harbiy san'ati rivojiga katta hissa qo'shgan Amir Temur va temuriylar harbiy san'atining naqadar mukammal bo'lganligidan dalolat beradi.

Buyuk lashkarboshi va harbiy tashkilotchi hisoblanmish Amir Temur intizomli armiya tuzishga, jang paytida qo'shin qismlarini odilona boshqarishga, jang taqdirini hal qiladigan joylarga harbiy kuchlarni tezkorlik bilan yo'llashga, mavjud to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bartaraf etishga, qo'shinidagi jangovar ruhni yuksak darajada ushlab turishga erishgan. Amir Temur va temuriylar armiyasiga chorvadorlar, hunarmandchilik va dehqonchilik bilan mashg'ul o'troq aholi ham jalg qilingan. Qo'shinda harbiy kuchlarning asosini tashkil qilgan otliq askarlar bilan bir qatorda, piyodalar ham xizmat qilgan. Sohib-

qiron Sharqda birinchilardan bo‘lib armiyaga o‘t sochar qurol – to‘p (ra’d) ni olib kirgan. Temuriylar davrida bu qurolning boshqa turlari (zarbzan, farangi, qozon va h.k) keng yoyildi. Tog‘li hududlarda jang harakatlari olib boruvchi maxsus harbiy qism va bo‘linmalar tashkil qilingan. Amir Temur jahon harbiy tarixida birinchi bo‘lib qo‘sinni jang maydonida an’anaviy 5 ta bo‘lakdan farqli ravishda 7 ta qo‘lga bo‘lib joylashtirish tartibini joriy etgan. Bu yangilik keyinchalik To‘xtamishxon, Shaybonixon singari turkiy sarkardalar tomonidan o‘zlashtirilgan va rivojlantirilgan. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, sohibqiron qo‘shindan ayollardan iborat maxsus bo‘linmalar ham bo‘lib, ular erkaklar bilan bir safda turgan, janglarda qahramonlik va matonat ko‘rsatgan.

Temuriylar armiyasi son jihatidan aniq tashkil etilgan, uning jangovar tartibi takomillashib borgan, o‘z dav-

rining ilg'or qurol va texnikasi bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim-bosh, bayroq va tug'lari bilan farqlangan. Bunday farqlanish jangda qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. Dushman muhofazasini turli usullar bilan barbod etish, raqibning yirik shaharlariga qo'qqisdan hujum qilish, qal'a, qo'rg'on va hisorlarni uzoq muddat muhosara qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshab olib qishloq, shahar, tuman va viloyatlarni birin-ketin zabit etib, dushmanni batamom mag'lub etmaguncha ta'qib qilish, taslim bo'lgan mamlakatlarni boshqarishga ishonchli kishilarni tayinlash singari amaliyotlar Amir Temur va uning vorislariga ko'plab zafarlar olib kelgan.

Taktika jihatidan Amir Temur lashkari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan. Sinchilik (razvedka) a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda yoki jangovar safda talab darajasida harakat qilishi uchun za-

rur chora va tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang paytida tezkorlik bilan boshqarishga alohida diqqat qaratilgan. O'nlik, yuzlik, minglik va tuman qo'mondonlarini tanlash masalasiga oliy qo'mondon mas'ul hisoblangan.

Sohibqironning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri – jang paytida qo'shin qanotlari ni dushman hujumidan muhofaza qilish va o'z navbatida, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism – *qunbulning* joriy etilishi bo'lgan. Bunday yangi harbiy qism Aleksandr Makedonskiy, Gannibal, Chingizzon, Lyudovik XIV, Buyuk Fridrix kabi atoqli sarkardalar qo'shinida bo'lмаган. Shayboniyxon qo'shinida bunday qism mavjud edi va u *to'lg'ama* atamasi bilan nomlangan.

Tarixiy manbalarda qayd etilishi cha, Amir Temurning 12 ming kishilik qo'shini jangga quyidagi tar-

tibda kirgan. Dastlabki to‘qnashuvni ayg‘oqchilik bilan mashg‘ul bo‘lgan qorovul boshlab borgan. Shundan so‘ng o‘ng va chap qanot ilg‘or qismlari – barong‘or hirovuli va javong‘or hirovuli madadida asosiy ilg‘or qism – mang‘lay jangga kirgan. Mang‘lay ortidan barong‘or hamda javong‘orning qolgan ikki bo‘lagi – chopovul va shiqovul ketma-ket harakatga kelgan. Ushbu kuchlar ham dushmanni mag‘lub eta olmasa, oliy qo‘mondon (amir ulumaro) boshchiligidagi markaz (qo‘l), (g‘o‘l) hal qiluvchi hujumga tashlan-gan.

Sohibqiron olib borgan janglarning taktik manzarasi quyidagicha bo‘lgan: qo‘sish markazi 40 bo‘lukka taqsimlangan va Oliy qo‘mondonga itoat qil-gan. Ushbu bo‘luklarning sara jang-chilardan tashkil topgan 12 bo‘luki safning birinchi qatorida, qolgan 28 bo‘luki ikkinchi va uchinchi qatorlar-da joylashgan. 40 bo‘lukning o‘ng tarafi oldida amirzodalar qismlari, so‘l

tarafi oldida qarindoshlar va ittifoq-chilar qismlari saf tortgan. Ikkinchi qatorning barong'orida 6 bo'luk o'z ilg'ori – hirovul bilan o'rinni egallagan. Ayni shu miqdordagi bo'luk va hirovulga javong'or ham ega bo'lgan.

Ikkinchi qator barong'ori va javong'ori oldida yuqoridagi tartibda birinchi qator qismlari joylashgan. Uning oldida bosh ilg'or – mang'lay (yoki katta hirovul) harakatda bo'lган. Yengil suvoriylardan iborat ikki bo'luk armiyani qo'qqisidan bo'ladigan hamladan muhofaza qilish, dushman kuchlari harakatini kuzatish bilan band bo'lgan.

Temuriylarga ko'plab zafarlar kel-tirgan bu harbiy tartibga keyingi davrlarda mintaqani boshqargan shayboniylar, ashtarkoniylar, mang'itlar, qo'ng'irotlar va minglar sulolalari davrida ancha o'zgarishlar kiritildi.

DAVLAT BOSHQARUVI

Sohibqiron tomonidan tashkil qilin-gan davlatda avval hokimi mutlaq – Amir Temur, so'ngra esa uning vorislari bevosita hukmronlik qilishgan. Saltanatni *devonbegi* – Bosh vazir boshliq yetti vazirligidan iborat arko-ni davlat – vazirlik mahkamasi bosh-qargan. Ulardan birinchisi – *mamlakat va raiyat vazirligi*. U viloyat va tumanlardan to'planadigan turli soliq va o'lponlar, yetishtirilgan ho-sil hamda mamlakat obodonligi bi-lan shug'ullangan. Ikkinchisi – *vaziri sipoh*, ya'ni harbiy ishlar vaziri. U navkarlarning ta'minoti (maoshi, oziq-ovqati va qurol-yarog'lari) bi-lan shug'ullangan. Uchinchisi – *ti-jorat (savdo) vaziri* edi. U tashqi savdo boji – *tamg'a*, chorvachilikdan to'planadigan *zakot*, egasiz qolgan mol-mulkarning tasarrufi, meros va merosxo'rlik kabi masalalar bilan shug'ullangan. To'rtinchisi – salta-

natning *moliya ishlari vaziri* bo‘lib, davlat xazinasining kirim-chiqimlarini boshqargan. Chegara viloyatlari va tobe mamlakatlar boshqaruvini nazorat qilish uchun maxsus uchta vazir tayin etilgan. Ular mazkur viloyat va mamlakatlardan davlat xazinasiga tu-shadigan daromadlarni nazorat qilgan. O‘z navbatida, bu uch vazir sultanatning *xolisa* deb yuritilgan bosh nazorat hay’atini tashkil etgan. Bu yetti vazir devonbegiga bo‘ysungan va u bilan bamaslahat davlatning moliyaviy ishlarini amalga oshirgan.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida sultanat devonxonasiда Amir Dovud, Jaloliddin Firuzshoh, G‘iyosiddin Shohmalik, Alouddin Alika Ko‘kaldosh va Alisher Navoiydek dono devonbegilar bu oliy mansabda faoliyat ko‘rsatganlar, mamlakatning obodonligi yo‘lida beqiyos xayrli ishlarni amalga oshirganlar.

Devonxona qoshida *arzbegi, sadri a’zam, shayxulislom* va *ahdos qozি-*

si kabi lavozimlar mavjud bo‘lgan. *Arzbegi* fuqaro va si pohiylardan tu-shadigan arzlar, shikoyatlar hamda mamlakatdagi ahvol to‘g‘risida ma’lumot to‘plash va bu borada oliv dargohga axborot berib turish kabi vazifalarni bajargan. *Sadri a’zam* – bosh sadr mamlakatdagi barcha vaqf xo‘jaliklarini nazorat qilgan, davlat hamda yer egalari tomonidan vaqf qilingan yerlar va mulklarni qayd etgan va vaqfnomalar tuzib, ularni qonuniylashtirgan. *Shayxulislom* aholining turli ijtimoiy tabaqalari o‘rtasida shariat ahkomlari va islom aqidalarining bajarilishini nazorat qilgan.

Davlatning bosh qozisi – *qozi ul-quzzot* “ahdos qozisi” nomi bilan yuritilib, fuqarolik ishlari bilan shug‘ullangan. Saltanat mahkamasida kirim-chiqimlarini qayd etuvchi maxsus *munshiy* – kotib faoliyat ko‘rsatgan.

Mamlakat ma’muriy jihatdan ulus, viloyat va tumanlarga bo‘linib, *ho-*



kim, noib va *beklar* tomonidan boshqarilgan. Ularning aksariyati harbiy kishilar – *amirlardan* iborat edi. Har bir shahar va viloyatning *moliya devoni*, *qozisi*, *muftiyisi*, *mutavallisi* va *muxtasibi* bo‘lgan. Lashkarlar uchun maxsus *qoziyi lashkar* tayin etilgan. Har bir shahar va qal’ada *qutvol* (komendant) tayinlanib, unga shahar va qal'a istehkomlarini ta'mirlash va ularning mudofaasi yuklangan. Fath etilgan viloyat va hududlar temuriyzodalar va xizmat ko'rsatgan amirlarga *suyurg'ol* tarzida in'om qilinib, ular orqali boshqarilgan. Masalan, Amir Temur hayotligi chog'idayoq sultanatni, asosan, to'rt qism (ulus)ga bo'lib, o'g'illari va nevaralariga taqsimlab bergen. Xuroson, Jurjon, Mozandaron va Seyiston (markazi Hirot) Shohruxga, G'arbiy Eron, Ozarbayjon, Iroq va Armaniston (markazi Tabriz) Mironshohga, G'ors, ya'ni Eronning janubiy qismi (markazi Sheruz) Umarshayxga,

G‘azna, Balx va Kobul viloyatlari, Shimoliy Hindiston (markazi G‘azna, keyinchalik Balx) katta o‘g‘li, marhum Jahongirning farzandi Pir-muhammadga suyurg‘ol qilib berilgan. Davlatning markaziy qismi – Movarounnahr va Xorazm (markazi Samarkand) esa Amir Temurning o‘zi tomonidan boshqarilgan.

Turon davlati o‘ziga xos tartib-qoidalarga asoslangan holda idora etilgan. Garchi uluslar markaziy hukumatga itoat etsalar-da, ammo ma’lum darajada mustaqil edilar. Ularda alohida devonxona, qo‘sishin bo‘lib, uluslarning majburiyatlari markaziy hukumatga tobeklik, davlat xirojining bir qismini Samarcandga yuborish va oliy hukmdor harbiy yurishlarida o‘z qo‘sini bilan qatnashish yoki talab etilgan tartibda askar yuborishdan iborat edi.

El-yurtni boshqarishda *harbiy kuchning* ahamiyati katta bo‘lgani tufayli uning takomiliga alohida e’tibor

berilgan. Temurbek amir va amir ulumaro (Bosh amir) kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy etgan, qo'shin boshliqlarini tanlash va ularni tarbiyalash, lashkariy qismlar va ularning joylashish tartibi, navkar va sarbozlarning qurollanishi hamda ularning intizomi masalalariga katta ahamiyat bergen.

Davlatni boshqarishda *qurultoy* va *kengashlar* o'tkazish alohida o'rinn tutgan. Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur tomonidan Balx, Samarqand, Qarshi, Qorabog' va boshqa joylarda o'tkazilgan *qurultoy* va *kengashlarda* shahzodalar, davlat ma'murlari, harbiy boshliqlar, ulamolar va mulkdor zodagonlarning vakillari qatnashgan. Ularda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoliga oid masalalar muhokama etilib, qarorlar qabul qilingan va tadbirlar belgilangan. Masalan, 1403-yilda Kavkazning Baylaqon shahrida chaqirilgan *kengashga* olim-u fuzalolar taklif

qilingan. Ulardan mamlakatni boshqarishda, xususan, uning obodonligi yo‘lida amalga oshiriladigan xayrli ishlar – jamoat binolari va inshootlar qurilishlarida o‘z maslahatlari bilan ko‘mak berishlari so‘ralgan.

Amir Temur hayotlik davridayoq davlatni boshqarish uslubiga bag‘ishlangan maxsus asar bitib, u keyinchalik “*Temur tuzuklari*” nomi bilan shuhrat topgan. Unda davlatni boshqarishda kimlarga tayanish, toj-u taxt egalarining tutumi va vazifalari, vazir va qo‘shin boshliqlarini saylash, siyohlarning maoshi, mamlakatni idora etish tartibi, davlat arboblari va qo‘shin boshliqlarining burchi va vazifalari, amirlar, vazirlar va boshqa mansabdorlarning toj-u taxt oldida ko‘rsatgan alohida xizmatlarini taqdirlash tartibi va boshqalar bayon etiladi.

Shunday qilib, Turon davlatining Amir Temur hukmronlik qilgan davrida davlat tuzilishi, qonun-qoidalarini

tartibga solish bilan bir qatorda, oliv dargoh hayoti bilan bog'liq an'analar ham qaror topgan.

Amir Temur hukmronligi davrida 27 mamlakatni o'z davlati tarkibiga qo'shib olgan. Bu haqda uning tilidan "Temur tuzuklari"ning ikkinchi ma-qolasida shunday deyiladi: "*Amirlar, sipohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardlig-u mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, ikki Iroq (Iroqi Arab va Iroqi Ajam), Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozarbayjon, Fors, Xuroson, Jete Dashti, Qipchoq Dash-ti, Xorazm, Xo'tan, Kobuliston, Box-tarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim*".

Turon davlatini Amir Temur va uning vorislari – temuriylar sulolasi Movarounnahr va Xurosonda 1370–1507-yillarda, buyuk boburiylar sulolasi esa Hindistonda 1526–1858-

yillarda boshqarishdi. Bu davrda mamlakat obod bo'lib, jahon bo'ylab shuhrat topdi.

Amir Temur asos solgan davlat qadimgi Sharqda uch yo'nalishda (o'troq dehqonchilik, dasht chorvachiligi va shaharsozlik) shakllangan sivilizatsiyalar qorishgan Turon – Turkiston hudoqlarida rivoj topib qiyomiga yetgan turkiy (o'zbek) davlatchiligining nodir namunasi edi.

MAMLAKAT OBODONLIGI

Amir Temur o'z davlatining shonshuhrati uchun uning markaziy qismi bo'lган Movarounnahr, ayniqsa, poytaxt Samarqandning obodonligiga alohida ahamiyat beradi. Uning har bir zafarli voqeani, sevinchli hodisani muhtasham me'morlik obidasini barpo etish bilan nishonlash odati bo'lган. Shu maqsadda hindistonlik yuzlarcha mohir g'isht teruvchilar, Sheroz, Isfahan va Damashqning mashhur ustahunarmandlari qatorida mahalliy

ustalar mamlakatda ulug‘vor imorat-u inshootlar bino qiladilar. Sohibqiron Tabrizda Jome masjidi, Sherozda saroj, Bag‘dorra madrasa, Turkiston-da mashhur shayx Ahmad Yassaviy qabri ustiga maqbara bino qildirdi. U o‘zining saxovati va himmatini, xususan, Shahrisabz va Samarqandda oliv imoratlar qurdirishda ko‘rsatdi. Shahrisabzda otasi va o‘g‘li Jahongir-ning qabrlari ustiga maqbara barpo etib, Jome masjidi qurdirdi. Shuning-dek mashhur Oqsaroy qad ko‘tardi. Bu muhtasham oliv imorat peshtoqi, toq-u ravoqlari, gumbaz-u devorlari zangori va oltin rangdagi naqshli koshinlar, guldor o‘ymakor parchinlar esa oyat-u turli mazmundagi bitiklar bilan ziynatlandi. Oqsaroyning ko-shinkor va parchinkor peshtoqi guldor naqshlari orasiga “*Agar bizning quvvat va qudratimizga ishonmasang, qurgan imoratlarimizga boq*”, deyil-gan xitobnoma bitilgan. Turkiston shahrida Ahmad Yassaviy maqbarasini

bino qilishda ham shunday maqsad nazarda tutilgan.

Bu ko'hna dunyo tarixida qator jahongirlar hukmronlik qilib o'tgan. Ana shu fotihlarning aksariyati o'zidan faqat kultepaga aylangan vayronalarnigina meros qoldirgan. Ulardan farqli o'laroq, Amir Temur umr bo'yi bunyodkorlik bilan mashg'ul bo'lgan. Uning "*Qay bir joydan bir g'isht olsam, o'rniga o'n g'isht qo'ydirdim, bir daraxt kestirsam, o'rniga o'nta ko'chat ektirdim*", degan so'zlari buning yorqin isbotidir.

Chingizzon bosqini davomida butunlay vayron etilgan Samarqand shahri sohibqiron davrida o'zining qadimgi o'rnidan birmuncha janubroqda yangidan qurildi. Shahar tevaragi Oxanin, Chorsu, Shayxzoda, Korizgoh, So'zangaron va Feruza kabi nomlar bilan yuritiluvchi oltita darvozali, mustahkam yangi qal'a devori bilan o'rab chiqildi. Shahar arkida Amir Temurning qarorgohi – Ko'ksaroy va Bo'stonsaroy barpo qilindi. Arkda

Ko'ktosh deb yuritilgan taxt o'rnatilgan ulkan miyonsaroy (zal)dan tashqari, davlat devonxonasi, qurolyarog'lar yasaydigan ustaxona va aslahaxona, tangalar so'qiladigan zARBxona, hibsxona kabi imoratlar joylashgan. Samarqandda masjid, madrasa va maqbaralar bilan bir qatorda, ko'prik va hammomlar qurilgan, shahar tashqarisida esa qo'riqxona va bog'lar barpo etilgan. 1403–1404-yillarda Samarqandda bo'lган Ispaniya elchisi Klavixo Amir Temur farmoni bilan olib borilayotgan bunyodkorlik ishlarini kuzatib hayratda qolgan. Hozirda Bibixonim nomi bilan mashhur Jome masjidi va boshqa ko'pgina binolar aynan o'sha davrda qad ko'targan edi.

Bu davrda Samarqandda ko'r kam va muhtasham imoratlardan tashqari, turli kasbdagi hunarmandchilik mahallalari barpo etilib, ustaxonalarining omilkor egalari uchun shart-sharoitlar yaratib berilgan.

Sohibqiron Samarqand atrofida ko'pgina go'zal bog'lar bunyod ettir-

di. Mohir me'morlar, tajribali sohibkorlarning aql-zakovati, mehnati-yu mahorati bilan barpo etilgan Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Behisht, Bog'i Baland, Davlatobod, Bog'i Nav, Bog'i Shamol, Bog'i Jahonnamo, Bog'i Maydon kabi chorbog'lar va ulardagi go'zal ko'shklar o'sha davr bog'dorchilik san'atining namunalari-dir.

Tuzilishiga ko'ra bog'lar ikki turda bo'lgan. Birinchi turdag'i bog'lar har tomoni taxminan bir km masofaga cho'zilgan to'rtburchak shakldagi chorbog'lar bo'lib, ikkinchi turdagilari esa tabiiy daraxtzor, butazor va o'tloq maysazorlarda barpo etilgan qo'riqxonalardir. Bunday qo'riqxonalar hukmdorlarning ov (shikor) qilishi uchun mo'ljallangan. Qo'riqxonaning o'simlik va hayvonot dunyosi, shubhasiz, nihoyatda boy bo'lgan.

Shaharning sharq tomonida Bog'i Dilkusho joylashgan. Uning tashqi hovlisida hashamatli saroy bo'lib, uni qurollangan askarlar qo'riqlagan. Ich-

ki hovlida esa tug‘lar bilan bezatilgan oltin fil haykallari safga terilgan. Uchinchi hovli Amir Temurning chet ellardan kelgan mehmonlarni qabul qiladigan oltin taxtli qarorgohi bo‘lgan. Sohibqiron ispan elchisi Klavixoni ana shu bog‘dagi qarorgohida tantana bilan qabul qilgan.

Amir Temur mamlakatni boshqargan davrda Movarounnahrning dehqonchilik vohalarida, xususan, Zarafshon vodiysida qator sug‘orish tarmoqlari qazilib, sug‘orma dehqonchilik maydonlari kengaytirildi. Ko‘plab yangi qishloqlar barpo etildi. Sohibqiron davlat poytaxti Samarqand atrofida qad ko‘targan bir qancha qishloqlarni Sharqning mashhur shaharlari Dimishq (Damashq), Misr (Qohira), Bag‘dod, Sultoniya va Sheroz nomlari bilan atadi. Zero, Samarqand o‘zining katta va yangi shahar ekanligi, beqiyos go‘zalligi hamda tevarak-atrofining obod etilganligi jihatidan jahondagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmog‘i lozim edi.

Mamlakat shaharlarida, ayniqsa, uning poytaxtida savdo va hunarmandchilik g'oyatda rivojlandi. Yangi bazaarlar, savdo rastalari barpo etildi. Shahar bilan dehqonchilik vohalar, chorvador ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi o'rtasida ayirboshlash, savdo aloqalari kengaydi. O'zaro savdoning taraqqiy etishida shahar aholisi alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatning ichki va tashqi savdosi kengayib, taraqqiy etishida Samarqand katta o'rinn tutardi. Klavixoning ta'riflashicha, Samarqand bozorida bug'doy va guruch mo'l hamda arzon bo'lgan. Unda hunarmandchilik mahsulotlari: atlas va kimxob, ip va jun to'qima mollari, mo'ynali va ipakli po'stinlar; attorlik mahsulotlari, ziravor va dorivorlar, lojuvardlar va boshqa turli mollar sotilgan. Poytaxtga chet mamlakatlardan, xususan, Xurosondan ma'danlar, Hind va Sinddan yoqut va olmos, Xitoydan atlas, yashm toshi, mushk va boshqa molalar, o'zga yerlardan oltin va kumush

olib kelingan. Klavixo Xitoy poytaxti Xonbaliq (Pekin)dan 800 tuyalik savdo karvoni kelganini o‘z kundaligida qayd etgan.

Bu davrda Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan O‘rta Osiyo orqali Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlariga yo‘nalgan xalqaro karvon yo‘li – Bu-yuk ipak yo‘li va uning tarmoqlarini qat’iy nazorat ostiga oladi. Savdo karvonlari qatnovining xavfsizligini ta’minlash va ularga qulayliklar yaratib berish maqsadida jiddiy chora-tadbirlar ko‘riladi. Shaharlarda karvonsaroy, Ipak yo‘li bo‘ylab rabotlar, qal’alar va ko‘priklar quriladi. Nati-jada Sharq bilan G‘arb mamlakatlari o‘rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqlari kengayadi. Bular esa, shubhasiz, Amir Temur davlatining tashqi iqtisodiy va elchilik aloqalari barqarorligini ta’minlashga xizmat qilgan.

AMIR TEMUR DIPLOMATIYASI

Sohibqiron dunyoning zamondosh hukmdorlari e'tiborini o'ziga jalg etibgina qolmay, balki umumjahon siyosiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, bu davrda bir tomondan sulton Boyazidning Bolqon yarimoroli davlatlariga nisbatan tazyiqi kuchayib, butun Yevropaga xavf solayotgan edi. Ikkinchi tomondan, Boyazidning o'zi G'arb tomon shiddat bilan siljib bora-yotgan xavfli raqib – Amir Temurning kuchli tazyiqiga duchor bo'lgan edi. Bunday o'ta murakkab siyosiy vaziyatda Yildirimga qarshi kuchlarning ma'lum darajada birlashuvi tabiiy edi.

Avvalambor Boyaziddan yengilib, o'z yer va mulklaridan mahrum bo'lgan Kichik Osiyo mamlakatlari hukmdorlarining elchilari Amir Temurdan madad istab, uning Qorabog'dagi o'rdugohiga borib, manzil topadilar. Hatto Vizantiya va G'alatadagi Genuya hokimining noibi, Fransiya qiroli hamda Sultoniy

shahrining katolik missionerlari yordam so'rab Amir Temurga murojaat qiladilar. Buning evaziga ular harbiy yurish vaqtida unga madad berish hamda Konstantinopol (hozirgi Istanbul) va Peraning Boyazidga to'lab kelgan bojini bundan buyon Amir Temurga to'lashga va'da qiladilar. Bunday taklif Amir Temurga maqbul tushadi. Chunki Turkiyani dengiz sohilidagi tayanchidan ajratish uchun unga dengizdan madad zarur edi. Shunday qilib, XIV asr oxiri va XV asr boshlarida sulton Boyazidga zarba berish uchun qulay siyosiy vaziyat vujudga kelgan edi. Bunday vaziyatdan Amir Temur ustalik bilan foydalanadi.

Bu davrda Amir Temur Boyazid bilan o'zaro diplomatik yozishmalar olib borish bilan bir qatorda, bo'lajak to'qnashuvda Trapezund va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishga harakat qiladi. Shu maqsadda u Genuya va Venetsiyaga sovg'a-salomlar hamda maktublar bilan elchilar yuboradi. Amir Temurning

1402-yil 15-may kuni Ioann VII Paleolog nomiga yo'llangan xati mazmuniga qaraganda, Konstantinopol noibi va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Amir Temurga xizmat qilish, hatto, unga odamlar va har qaysisi 20 tadan, jami 40 ta harbiy kema bilan yordam berish majburiyatini o'z zimmalariga olishlari lozim bo'lgan. Buni Ispaniya elchisi Klavixo ham o'z kundaligida qayd qilib o'tadi.

Bu davrda Amir Temur yuqorida nomlari keltirilgan Fransiya, Angliya, Kastiliya va Lion qirollari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, yozishmalar olib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, turk sulton qo'shini ustidan qozonilgan g'alabadan so'ng Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan bo'lgan aloqalari mazmuni tubdan o'zgaradi. Endilikda sohibqiron ular bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash va o'zaro savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yish kabi masala-larga ahamiyat beradi. Shu munosabat

bilan Amir Temur 1402-yilning yozida Fransiya va Angliyaga maxsus elchilar yuborib, har ikki mamlakat savdogarlarini uchun erkin savdo munosabatlari olib borilishini ta'minlash va agar qirol hamda gersoglar rozi bo'lsalar, bunday savdoni tegishli bitim yoki shartnama bilan mustahkamlashni taklif etadi. Fransiya qiroli Karl VI Amir Temurning taklifini mammuniyat bilan qabul qilgan.

Ayni shu davrda Shimoliy Eron, Iraq, Tabriz va Sultoniyani o'z ichiga olgan mulklarning hokimi Mironshoh otasi Amir Temur keksayib qolgan paytda G'arbiy Yevropa hukmdorlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etadi. Mironshoh ham o'z navbatida Yevropa davlatlari bilan o'zaro savdo aloqalarini jonlantirish maqsadida xristian ruhoniylariga xayrixohlik bildirib, savdogarlarning daxlsizligini ta'minlash borasida chora-tadbirlarni amalga oshiradi. Shu sababli G'arbda Mironshoh tez orada katolik dinining homiysi siyatida shuhrat qozonadi.

Kastiliya (Ispaniya) qiroli Genrix III Sharq bilan juda qiziqib qolgan edi. 1402-yilning bahoridayoq dastlabki Ispaniya elchilari Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuborilgan. Bunga javoban Amir Temur o‘z vakili Muhammadqozini Ispaniyaga elchi qilib yo‘llaydi. 1403-yilda esa Kastiliya qiroli Amir Temur huzuri ga ikkinchi marta maxsus elchilarini yuboradi. Ularga Rui Gonsales de Klavixo boshliq qilib tayinlanadi. Elchilar Samarqandda Amir Temur tomonidan tantanavor qabul qilinib, ularga katta e’tibor va hurmat ko‘rsatiladi.

Klavixo boshliq Ispaniya elchilari 1404-yilning sentabr-noyabr oylarida Samarqandda bo‘ladilar. Sohibqironning Xitoyga yurishi munosabati bilan ko‘pgina davlatlarning elchilari qatorida Klavixo elchiligi ham shu yilning 21-noyabrida Samarqanddan o‘z yurtiga kuzatiladi. Klavixo Ispaniyaga 1406-yilning mart oyida qaytib keladi. Uning Samarqand safari taassurotlari “Buyuk Temur tarixi” va “Temur qa-

rorgohi” hamda “Samarqandga sayohat kundaligi” nomlari bilan ispan tilida bir necha bor nashr etiladi.

Amir Temur Xitoyga yurishi davrida – 1405-yil 18-fevralda O’tror shahrida og’ir xastalikdan so’ng va-fot etadi. Uning jasadi Samarqandga keltirilib, Go’ri Mir (hozirgi Amir Temur maqbarasi)ga dafn qilingan.

AMIR TEMUR VA AVLODLARI SHAJARASI

Amir Temur asos solgan markazlashgan buyuk sultanatni *temuriylar sulolasi* boshqardi. Temuriylar davrida ularning davlati hududi shimolda Ili daryosi va Xorazm (Orol) dengizidan janubda Fors qo’ltig’iga qadar, sharqda Xitoy va Hindistondan g’arbda Trabzun (Qora dengiz)ga qadar ulkan maydonni qamragan. Davlat tuzilishi, qonun va qoidalari jihatidan mamlakat musulmon Sharqida o’rta asrlarda hukm surgan davlatlardan katta farq

qilmasa-da, ammo uning boshqaruvi tizimi Turon, Turkiston, Movarounnahr davlatchiligining asriy an'analari, sultanatga kirgan mamlakatlar bilan maddaniy aloqalar asosida yangi tartib va qoidalar bilan takomillashtirilgan.

*Temuriylar sulolasining
Movarounnahr va Xurosonda
hukmronlik qilgan vakillari
(1370–1507-yillar)*

Markazlashgan davlat tepasida turgan temuriy hukmdorlar (1370–1469): Amir Temur ibn Tarag‘ay Bahodir (1370–1405); Shohrux ibn Temur (1409–1447); Ulug‘bek ibn Shohrux (1447–1449); Abu Said ibn Sulton Muhammad (1457–1469);

Movarounnahr (poytaxti Samarqand)dagи temuriy hukmdorlar (1405–1500): Xalil Sulton (1405–1409); Ulug‘bek (1409–1449); Abdullatif (1449–1450); Abdullo Mirzo (1450–1451); Abu Said ibn Sulton Muhammad (1451–1469); Sulton Ah-

mad Mirzo ibn Abu Said (1469–1494); Sulton Mahmud Mirzo (1494–1495); Boysunqur Mirzo (1495–1497); Sulton Ali Mirzo ibn Sulton Mahmud (1498–1500);

Xuroson (poytaxti Hirot)dagи temuriy hukmdorlar (1396–1507): Shohrux (1396–1447); Ulug‘bek (1447–1449); Abulqosim Bobur (1449–1457); Shoh Mahmud Mirzo (1457); Abu Said ibn Sulton Muhammad (1457–1469); Sulton Husayn Boyqaro (1469–1506); Badiuzzamon Mirzo ibn Sulton Husayn Boyqaro (1506–1507) va Muzaffar Husayn Mirzo (1506–1507).

Boburiylar sulolasi

Hindistonda hukmronlik qilgan buyuk boburiylar sulolasining vakillari (1526–1540; 1555–1858): Bobur ibn Umarshayx Mirzo (1526–1530), Humoyun ibn Bobur (1530–1540; 1555–1556), Akbarshoh ibn Humoyun (1556–1605), Jahongirshoh ibn Akbarshoh (1605–1627), Shoh Jahon

(1627–1658), Avrangzeb Olamgir (1658–1707), Bahodirshoh I (1707–1712), Jahondorshoh (1712–1713), Farrux Siyar (1713–1719), Muhammadshoh (1719–1748), Ahmadshoh (1748–1754), Olamgir II (1754–1759), Shoh Olam II (1759–1806), Akbar II (1806–1837), Bahodirshoh II (1837–1858).

**SOHIBQIRON AMIR
TEMURNING JAHON
TARIXIDA
TUTGAN O'RNI**

Amir Temur mamlakatni 35 yil davomida boshqardi. U Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar va Orol dengizidan Fors qo‘ltig‘iga qadar bo‘lgan g‘oyat ulkan hududni qamrab olgan buyuk sultanatni barpo etdi. Bundan tashqari, Kichik Osiyo, Suriya, Misr hamda Quyi Volga, Don bo‘ylari, Balxash ko‘li va Ili daryosi, Shimoliy Hindistongacha bo‘lgan mamlakatlarni o‘ziga bo‘ysundirdi. U

nafaqat Movarounnahr va Turkistonni obod etdi, balki bo‘ysundirilgan mamlakatlarning shaharlarini ham qayta tikladi. Xususan, Bag‘dod, Darband va Baylaqon shaharlari shular jumlasidandir. Shaharlarda Jome masjidlari, madrasalar, xonaqohlar, hammomlar va bog‘-u bo‘stonlar barpo ettirdi. Karvon yo‘llari bo‘ylab rabotlar, qal’alar, ko‘priklar qurdirdi. Eng muhimi, Eron, Ozarbayjon va Iroqdag‘i tarqoqlik va boshboshdoqlikka barham berib, Sharq bilan G‘arb mamlakatlarini bog‘lovchi qadimiy karvon yo‘llari xavfsizligini tikladi. Bu bilan nafaqat Movarounnahr, balki Uzoq va Yaqin Sharq mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga, xalqlar va davlatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishga ulkan hissa qo‘shti. Amir Temur Yevropaning Fransiya, Angliya va Kastiliya kabi yirik qirolliklari bilan bevosita savdo munosabatlarini yo‘lga qo‘ydi va ular bilan diplomatik aloqalar o‘rnatdi.

Siyosiy tarqoqlik tugatilib, marmazlashgan davlatning tashkil topishi katta ijobiy natijalarga olib keldi. Mamlakatning Chingizzon yurishlari va mo‘g‘ullarning bir yarim asrlik hukmronligi oqibatida tanazzulga uchragan iqtisodiyoti tiklanishi uchun qulay sharoit vujudga keldi. Ayni vaqtida xo‘jalikning asosi bo‘lgan sug‘orma dehqonchilikda muayyan siljishlar ro‘y berdi. Fan va madaniyat ravnaq topib, shaharlar obodlashdi va gavjumlashdi.

Amir Temurning harbiy faoliyati va uning natijalariga baho berilar ekan, shuni ta’kidlash kerakki, sohibqiron ko‘zlagan maqsadlar va bu borada u amalga oshirgan rejalar ikki bosqichda kechgan. *Birinchi bosqichda* (1360–1386) Amir Temur Movarounnahrni mo‘g‘ullar zulmidan ozod etib, marmazlashgan davlat tuzish yo‘lida mamlakatda o‘rta asrlarda qaror topgan tarqoq mulklarni birlashtirish uchun kurashdi. Uning bu davrdagi faoliyati

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida, shubhasiz, ulkan ijobiy ahamiyat kasb etdi.

Amir Temur faoliyatining *ikkinchi bosqichida* (1386–1405) uch yillik, besh yillik va yetti yillik harbiy yurishlar amalga oshirilib, Oltin O'rda, Eron, Iroq, Kavkaz, Kichik Osiyo, Misr va Hindiston yerlari egallandi. Bu yurishlar, shubhasiz, shiddat bilan olib borildi. Taslim etilgan hududlarda Amir Temur tomonidan qattiqko'lllik bilan o'rnatalgan tartiblar va qat'iy siyosat ayrim norozilik va qarshiliklarning namoyon bo'lishiga ham sabab bo'ldi.

Amir Temurning harbiy faoliyati teranroq tahlil etilib, unga baho berilganda shuni ta'kidlash joizki, u, avvalo, Osiyo (Qadimgi Turon – Turkiston) sarkardasi edi. Sohibqiron o'zining jangovar askarlari va qurollaridan o'z zamonasining taomili bo'yicha foydalandi. Darhaqiqat, to'qnashuvlarda yengilib, shartnoma

tuzgach, o‘z ahididan qaytgan xiyonatkor dushman-u sotqin g‘animlarga nisbatan berilgan jazo, shubhasiz, nihoyatda qattiq, ammo adolatli bo‘lgan. Sohibqiron o‘rta asrlarda shakllanib, qaror topgan jamiyatning murakkab fikrlovchi siymosi edi. U yuksak harbiy daholik namunasini ko‘rsatib, qat’iyat bilan o‘z jamiyatiga sidqidildan xizmat qildi. Shu bois muarixlar Amir Temurni Eron shahanshohi Doro, makedoniyalik Aleksandr (Iskandar), rimlik Yuliy Sezar va boshqa tarixiy hukmdorlarga qiyos qilib, ular bilan bir safga qo‘yadilar. Amir Temur yirik davlat arbobi, o‘z davrining tengsiz mohir sarkardasi sifatida O‘zbekistonda davlatchilikning yuksalishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakatlari bilan Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni munosib baholandi. Vatanimizda uning shaxsi va faoliyatini o‘rganishga hamda ommalashtirishga keng yo‘l ochildi.

O‘zbekistonda uning nomi abadiylash-tirildi. Qator shahar va qishloqlarda-gi shohko‘chalar, maydonlar, shirkat xo‘jaliklari, maktablar, kinoteatrлar va boshqalar Amir Temur nomi bilan ataldi. Islom Karimov tashabbusi va rahnamoligida Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykallar o‘rnatildi. O‘zbekistonda 1996-yil *Amir Temur yili* deb e’lon qilindi. Toshkentning Amir Temur xiyo-boni yonida Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo qilindi (1996). “Amir Temur” ordeni ta’sis etildi (1996) va xalqaro Amir Temur jamg‘armasi tashkil qilindi (1995). YUNESKO xalqaro tashkiloti bilan hamkorlikda Toshkent, Samarqand, Shahrisabz sha-harlarida va xalqaro miqyosda sohib-qiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi keng nishonlandi (1996). Amir Temur tavalludining sanasi har yili O‘zbekistonda keng jamoatchilik, xu-susan, yosh avlodning faol ishtirokida

muttasil ravishda nishonlab kelinmoqda. Mustaqillik sharofati bilan Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar, she'riy hamda nasriy asarlar yaratildi.



AMIR TEMUR VASIVATI

Emdi Pir Muhammad Jahongirkim, valiahd qilibmen va o'rnumga qoyimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati aniki bo'lg'ay. Va istiqlol va tamkin bila o'l turub, mamolik tadbirdin va cherik va raiyat holidin xabardor bo'lg'ay. Sizlar, kerakkim, anga muti' bo'lub, ittifoq bilan aning ishiga mashg'ul bo'lg'aysiz, to olam buzilmag'ay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo'l mag'ay. Va necha yilliq sa'yi qilg'onim zoe bo'l mag'ay. Va andoq kerakkim, sizning ittifoqingizni bilib, el yiroqdin hisob olg'aylar va hech kishiga ul quvvat bo'l mag'aykim, muxolifat qila olg'ay.

(*Sharafuddin Ali Yazdiy.*
Zafarnoma)

O‘g‘illarim, millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun siz-larga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting.

Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir. Zaifalarni qo‘ring, yo‘qsullarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va Ozodlik das-turingiz, rahbaringiz o‘lsun. Men kibi uzun saltanat surmak istasangiz, qilichingizni yaxshi o‘ylab chekingiz. Bir da’fa chekkandan so‘ngra-da, uni ustalik-la qo‘llangiz. Orangizga ni-foq tuxumlari ekilmasligi uchun ko‘p diqqat bo‘ling. Ba’zi nadimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumla-ri sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajakdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko‘rsatdim. Bularga sodiq qolsangiz toj boshingizdan tushmas.

O‘lim to‘sagida so‘ylagan otangiz-ning so‘zlarini unutmangiz.

Mendan so‘ng hoqon Pir Muham-mad Jahongir o‘lajakdur. Onga, men-

ga itoat etar kibi itoat etajaksiz. Qo'-
mondonlarim, hozir itoat omini etin-
giz...

(Amir Temur vasiyati)

“Temur tuzuklari”dan

O'n ikki tuzuk

Mamlakatlarni fath etguvchi baxt-
li farzandlarim va jahonni idora et-
guvchi qudratli nabiralarimga ma'lum
bo'lsinkim, Tangri taolo dargohidan
umidim shulki, ko'plab farzandlarim,
avlodim va zurriyotim sultanat tax-
tiga o'tirib, mamlakatlarni idora et-
gay. Shuning uchun sultanat qurish,
davlat tutish bobida o'zim qo'llagan
ishlarni bir necha tuzukka bog'ladim
va sultanatni boshqarish haqida
qo'llanma yozib qoldirdim, toki far-
zandlarim, avlodim va zurriyotimdan
bo'lganlarning har biri unga muvofiq
ish yuritsin; mehnat-u mashaqqatlar,
ko'p harbiy yurishlar, urush-taloshlar

bilan, Tangrining inoyati va hazrati Muhammadning, unga Tangrining marmamatlari va salomlari bo'lsin, tole'i baland millatining sharofati, onhazratning ulug'vor avlodi va qimmatli sahabalariga qilgan muhabbat va do'stligim orqali qo'lga kiritgan davlat va sultanatni saqlagaylar.

Bu tuzuklardan sultanat ishlarni boshqarishda qo'llanma sifatida foydalangaylar, toki mendan ularga yetadigan davlat va sultanat zarar-u tanazzuldan omon bo'lgay.

Endi mening nomdor, baxtiyor farzandlarim va mamlakatlarni zabit etguvchi iqtidorli nabiralarimga yo'lyo'rig'im shulki, men o'n ikki narsani o'zimga shior qilib olib, sultanat martabasiga erishdim. Shu o'n ikki narsa yordamida mamlakatlarni zabit etib, sultanatimni boshqardim va sultanat taxtiga zeb-u ziynat berdim. Ular ham ushbu tuzukka amal qilsinlar. Mening va o'zlarining davlat-u sultanatlarini ehtiyot qilsinlar.

Birinchisi – davlat va saltanatiga bog‘lagan mening birinchi tuzugim shulkim, Tangri taolonning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim. Har yerda va har vaqt islom dinini quvvatladim.

Ikkinchisi – shulkim, o‘n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabit etdim, ularni idora qildim. Davlat, sultanat ustunlarini o‘shalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim.

Uchinchisi – shulki, maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik, ehtiyyotkorlik bilan g‘anim qo‘sishinlarini yengib, mamlakatlarni o‘zimga bo‘ysundirdim. Saltanatim ishlarini murosa-yu madora, muruvvat, sabr-toqat bilan yurgizdim. Ko‘p narsani bilib tursam ham o‘zimni bilmasslikka soldim, do‘s-t-u dushman bilan murosa-yu madora qildim.

To‘rtinchisi – davlat ishlarini sultanat qonun-qoidalariga asoslangan

holda boshqardim. To'ra va tuzukka tayanib, sultanatda o'z martaba va maqomimni mustahkam saqlab turdim. Amirlar, vazirlar, si poh, raiyat, har biri o'z lavozim va martabasidan mamnun holda xizmatimda bo'lib, undan ortig'iga da'vogarlik qila olmadi.

Beshinchisi – amirlarim va si po hiylarimni martaba va unvonlar, oltin-kumush bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga [o'z yonimdan] o'rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar. Dirham va dinorlarni ulardan darig' tutmadim. Ularning yumushlarini yengillashtirish uchun mehnat-u mashaqqatlarini o'zimga oldim va ularni tarbiyat qildim. Amirlar, si pohsolorlar, bahodirlar bilan ittifoq bo'lib, ularning mardlig-u mardonavorligiga tayanib, shamshir zarbi bilan yigirma yetti podshohning taxtini egalladim. Turon, Eron, Rum, Mag'rib, Shom, Misr, ikki Iraq, Mozandaron, Gilon, Shirvon, Ozar-

bayjon, Fors, Xuroson, Jete Dash-ti, Qipchoq Dashti, Xorazm, Xo'tan, Kobuliston, Boxtarzamin, Hindistonga podshoh bo'lib, hukm surdim...

Oltinchisi –adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o'zimdan rozi etdim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm-shafqat bilan, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim. Xayr-ehson ishlarim bilan odamlarning ko'nglidan joy oldim. Siyosat va insof bilan si pohiyilarim va raiyatni umid va qo'rqinch orasida tutdim. Fuqaro va qo'l ostimdagilarga rahmdillik qildim, si pohiyilarga in'omlar ulashdim...

Yettinchisi – sayyidlar, ulamo, mashoyix, oqil-u donolar, muhaddislar, tarixchilarni sara, e'tiborli odamlar hisoblab, izzat-u hurmatlarini o'rniga qo'ydim. Shijoatli kishilarni do'st tutardim, chunki Tangri taolo jasur kishilarni ardoqlaydi. Ulamo bilan suhbatda bo'ldim va pok niyatli, toza qalbli kishilarga talpindim, ularning himmatlaridan ulush tilab, muborak

nafaslari bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qildim. Darvish, faqir va miskinlarni o'zimga yaqin tutdim, ularning ko'ngillarini og'ritmadim va biron talablarini rad etmadim. Buzuqi va og'zi shaloq, g'iybatchi odamlarni majlisimga yo'latmadim, so'zlariga amal qilmadim. Biror kimsaga tuhmat-u g'iybat qilsalar, quloq solmadim.

Sakkizinchisi – azm-u jazm bilan ish tutdim. Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim. Har neki desam, unga o'zim amal qildim. Hech kim-ga g'azab bilan qattiq muomalada bo'lmadim va hech bir ishda tanglik qilmadim, toki Tangri taoloning g'azabiga duchor bo'lmayin va ishimni buzib, holimni tang etmasin deb. Odam Atodan boshlab Muhammad payg'ambargacha, ulardan to hozirgi damgacha o'tgan sultonlarning qonunlarini va turish-turmushlarini donolar-

dan so‘rab-su rishtirdim. Har qaysilari-ning yo‘l-yo‘riqlari, turish-turmushlari, qilish-qilmishlari, aytgan gaplarini xo-
tirimda saqladim va yaxshi axloqlari,
ma’qul sifatlaridan o‘rnak olib, unga
amal qildim. Davlatlarining tanazzul-
ga uchrashi sabablarini surishtirdim
va davlat-u saltanat zavoliga sabab
bo‘luvchi ishlardan saqlandim, aslni
buzuvchi, ocharchilik va vabo kasa-
li keltiruvchi zulm va buzuqchilikdan
saqlanishni o‘zimga lozim bildim.

To‘qqizinchisi – raiyat ahvoldidan
ogoh bo‘ldim, ulug‘larini og‘a qato-
rida, kichiklarini farzand o‘rnida
ko‘rdim. Har yerning tabiatni, har el
va shaharning rasm-u odatlari, mijoz-
zidan voqif bo‘lib turdim. Har bir
o‘lka va shahar aholisining ulug‘lari
bilan do‘s tutindim. Ularning mijoz-
lariga, tabiatiga to‘g‘ri kelgan, o‘zlarini
tilagan odamlarni ularga hokim qilib
tayinladim. Har bir diyor aholisining
ahvoldidan ogoh bo‘lib turdim. Har
bir mamlakatning ahvolini, si poh-u

raiyat kayfiyatini, turish-turmushini, qilish-qilmishlarini, o'rtalaridagi aloqalarni xatga bitib, menga bildirib turishlari uchun diyonatli, to'g'ri yozuvchi kishilarni belgiladim. Bor迪yu, egri yozganlari menga bildirilsa, ularni jazoladim. Hokimlar-u sipohdan qay birining xalqqa jabr-zulm yetkizganini eshitsam, ularga nisbatan darhol adolat-u insof yuzasidan chora ko'rdim.

O'ninchisi – turk-u tojik, arab-u ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va xizmatimga kirgan kishilarning ulug'lariga izzat-hurmat ko'r-satdim, qolganlarini ham o'z holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim...

O'n birinchisi – farzandlar, qarindoshlar, yor-u birodar, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlat-u ne'mat martabasiga erishganimda unutmadi, [mol-u mulk va naqd pul bilan] haq-

larini ado etdim. O‘z farzandlarim, qavm-u qarindoshlarimdan qarindoshlik mehrini uzmadim. Ulardan noravo ish o‘tgan bo‘lsa, darhol [qo‘l-oyog‘ini] bog‘lab, o‘ldirishga buyurmadi. Har kimni [turish-turmushning past-u balandlarida] turli yo‘llar bilan sinab bilib oldim va ularga shunga yara-sha muomala qildim. Hayotning ko‘p issiqsovug‘ini ko‘rib, ulardan saboq olib, tajribamni oshirdim. Shuning uchun do‘sst-u dushman bilan kelishib yashadim.

O‘n ikkinchisi — do‘sst-dushmanligiga qaramay, har joyda si pohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo‘lgan jonlarini foniyl dunyo moli uchun sotadilar. O‘zlarini ma’raka-maydonga, halokatga otib, jonlarini qurban qiladilar.

O‘n ikki toifa

Saltanatim ishlarini tartib-intizomga solib, saltanatim martabasiga to‘ra va tuzuk bilan zeb-u ziynat berdim. Sal-

tanatimni o'n ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim.

Saltanatim martabasi bo'lmish to'-ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim fala-kining o'n ikki burji va davlatim korxonasining o'n ikki oyi deb hisobladim.

Birinchi toifa – sayyidlar, ularmo-yu shayxlar va fozillarni o'zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlislarimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o'rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o'rgandim.

Ikkinchchi toifa – aqlli kishilar va kengash sohiblari; ehtiyotkor, qat'iyatli arboblar; keyinini o'ylab, olisni ko'rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, ularning suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

Uchinchi toifa — duogo'y kishilar ni qadrladim. Xilvatda ulardan duolar tilab, istaklarimning bajo etili shini o'tinib so'rardim. Majlislarda, yig'inlar, bazmlar va jang maydon larida ulardan ko'p barakotlar topdim. Chunonchi, mening lashkarim To'xtamishxon lashkarining ko'pligini ko'rib sarosimaga tushib qolganda, sohibi duo bo'l mish Mirziyouddin Sabzavoriy boshidan sallasini oldi; qo'llarini duoga ochib, men uchun Tangridan zafar tiladi. Hali duosi tugamay, duo ta'siri ko'rindi va lashkarim yog'iyni qochirdi.

Yana bir misol shulki, saroyim haramidagilardan biri qattiq betob bo'lib, o'limi yaqinlashdi. Duogo'y sayyidlar dan o'n ikki kishi yig'ilishib keldilar. Har biri o'z umridan bir yilni unga bag'ishladi va u sog'ayib yana o'n ikki yil umr ko'rdi.

To'rtinchi toifa — amirlar, sарhanglar, si pohsolorlarga majlisim dan o'rin berib, martabalarini yuqori

ko'tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim.

Jang maydonida ko'p marotaba qilich chopishgan shijoatli jasur kishilarni xush ko'rardim; jang maydonlariга ot choptirib kirib-chiqish usullarini, g'anim lashkari to'pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopishni ulardan so'rар edim. Si pohgarlik ishlarida ularga ishonib kengash so'rар edim.

Beshinchi toifa – si poh va raiyat bo'lib, har ikkisiga bir ko'z bilan qaradim. Sipohiylardan chiqqan bahodirlar, dovyuraklarga maxsus faxrli o'tog'a, kamar va o'qdon taqdim etib, martabalarini ko'tardim. Har mulk va mamlakatning beklari, ulug'lari, boshliq-oqsoqollarini hurmatladim; ularga sovg'a-salomlar berib, xizmatlaridan foydalandim. Si pohiyalarimni hamisha jangga tayyor holda tutdim; oylik haqlarini so'rattirmay vaqtida berardim. Chunonchi, Rum yurishida si pohiyalarimga o'tgan va kelajakda qiladigan

xizmatlari uchun yetti yillik oziqalarini birvarakayiga berdim. Sipoh va raiyatni shunday tutdimki, biron tasasi ikkinchisiga zulm ko'rsatib, oyoq osti qilolmas edi. Boshqa si pohiylarni o'z martabalariga va darajalariga qarab shunday saqladimki, ular haddidan oshib ortiqcha qadam qo'yolmasdi. Ularning martabalarini na ko'p ko'tarib, hovliqtirmadim va na ko'p tushirib ko'ngillarini cho'ktirmadim. Qaysi biri biror xizmat ko'rsatar ekan, in'omlar berib, boshqalardan ayricha hurmatladim.

Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko'rib, boshqalarnikidan ortiqroqligini bilsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik dara-jasiga ko'tarar edim. So'ngra ko'r-satgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim.

Oltinchi toifa – ishonchli, to'g'-ri e'tiqodli oqilxiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, saltanat ishlari bo'yicha ulardan maslahat oli-

shimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o‘z maxfiy ishlarim va nihoniy sir-asrоримни o‘shalarga topshirdim.

Yettinchi toifa – vazirlar, devon kotiblari va munshiylariki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim. Bularni menga tobe mamlakatlarni ko‘rsatuvchi ko‘zgu deb bildim. Chunki ular har mulk-mamlakat, si poh va raiyat voqealarini menga bildirib turdilar. Bular davlat xazinasi, si poh va raiyatga oid ishlarni tartibga solib yuritdilar. Saltanat mulkiga tushgan rahnalarni berkitishning loyiq chora-yu tadbirlarini ko‘rdilar. Saltanatim korxonasi xazinasining kirim va chiqimga oid ishlarni to‘g‘ri olib bordilar. Hamisha mamlakat to‘kinchiligi va obodligi uchun harakat qilishdi.

Sakkizinchи toifa – hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni o‘z atrofimga to‘pladim. Hakimlar va tabiblar bilan

ittifoqda bemorlarni davolatar edim. Munajjimlardan sayyoralarning qutlug‘ va qutsiz kunlari, ularning harakati va osmonda aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar qurib, bog‘-u bo‘stonlarning tarxini chizdirdim.

To‘qqizinchi toifa – muhaddislar, payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar hamda qissaxonlar bo‘lib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim. Payg‘ambarlar va avliyolar haqidagi qissalarni, o‘tgan podshohlar to‘g‘risidagi xabarlarni, ularning sultanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko‘ra zavol topganligini ulardan so‘rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so‘zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo‘layotgan voqealarni ulardan eshitardim va jahon ahli ahvoldidan xabar topar edim.


O‘ninchi toifa – mashoyixlar, so‘fiylar, xudoni tanigan oriflardir.

Ularning xizmatlarida bo'lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalari ni oldim. Ulardan Tangri taoloning so'zlarini eshitib, karomatlar ko'rdim, mo'jizalarini mushohada etdim va suhbatlaridan rohatlanib, huzur qildim.

O'n birinchi toifa – kasb-u hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo'lganlarini davlatxonamga olib kelib, o'z o'rdamdan o'rin belgiladimki, safarda va turg'unlikda si pohimga kerakli yaroqlar va boshqa jihozlarni hozirladilar.

O'n ikkinchi toifa – har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarining boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilari. Har bir mamlakatga va diyorga savdogarlar va karvonboshilar tayinladimki, ular qayerga borishmasin, Xitoygami, Xo'tan, Chin-u Mochin, Hindiston, arab mamlakatlari, Misr, Shom, Rum, Jazoir, Farangistongami, u yerlarning nafis matolari va munosib tuhfalaridan keltirsinlar. O'sha mam-

lakatlarda istiqomat qiluvchi kishilar-
ning hol-ahvoli, turish-turmushi ha-
qida menga xabar olib kelsinlar. Har
bir mamlakat hukmdorining o‘z raiya-
tiga qanday muomala-yu munosabatda
ekanligini aniqlasınlar.



TEMURIYLAR DAVRI MANBALARIDA AMIR TEMUR TAVSIFI

Ibn Arabshoh

**Ajoib al-maqdur fi
tarixi Taymur**

**(Temur tarixida taqdir
ajoyibotlari)**

*Temurning baodat sifatlari va unga
ato qilingan tug‘ma xislatlari va
tabiatи haqida bo‘lim*

Temur baland qadli, uzun bo‘yli,
tik qomatli, go‘yo u qadimiy pah-
lavonlar avlodlaridan bo‘lib, keng pe-
shonali, katta boshli, g‘oyatda kuchli
va salobatli, ajoyib bo‘lalik, rangi oq-u
qizil yuzli, lekin dog‘siz, bug‘doyrang

emas, qo'l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo'g'on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o'ng oyoq-qo'li cho'loq va shol, ikki ko'zi bamisoli ikki sham bo'lsa-da, shodligi bilinmas, yo'g'on ovozli edi; u o'limdan qo'rmas, yoshi saksonga yetgan bo'lsa-da, iztirobsiz, vazmin, badani to'la va pishiq, xuddi zich (qalin) tosh misoli qattiq edi. U hazil-mazax va yolg'onne yoqtirmas, o'yin-kulgi-yu ko'ngilxushlikka maylsiz, garchi (so'zda) o'ziga ozor yetadigan biron narsa bo'lsa hamki, sadoqat unga yoqar edi: "u (bo'lib) o'tgan ishga aziyat chekmas" va o'ziga hosil bo'ladigan (yutuq)dan shodlanmas edi.

Temur tamg'asining naqshi "rosti rasti" bo'lib, bu "haqgo'y bo'lsang, najot topasan" demakdir. Uning otlaridagi tamg'a, tanga-yu tillolariga zarb beriladigan (asosiy) belgi ham mana shunday -  uch halqadan iborat edi. Ko'pincha uning majlisida uyat-

siz so'zlar, qon to'kish, asir olish, nahb-u g'orat qilish va haram (haqi) ga haqorat gaplar bo'lmas edi. Temur qo'rmas, shijoatli, botir kishilarni itoat qildiruvchan bo'lib, jasoratli (kishi)larni, dovyurak va mardlarni yoqtirar edi. Ular yordamida dahshatli joylar qulflarini fath etib, odamlar sherlarini o'lja qilar, ular zarbali bilan baland tog'lar cho'qqilarini zabt etar edi. U bexato (nishonga uruvchi) fikrli, qat'iy azm bilan so'zlovchi, (boshiga) kulfat tushganda ham haqgo'y (kishi) edi. Men dedim:

*Uning fikrlari fitna olovini
qancha kovlamasin,
Kulfat chog'ida uni himoya qilib,
(o'zga) qabilalarni kuydirdi.*

U (birovdan) bir gap eshitganda dalil talab qiladigan, zimdan qarash va ko'z ishoratlarini sezadigan idrokli kishi edi. U sinchkov bo'lib, har bir ishoratdan ogoh kishi bo'lib, yuz beradigan barcha ishni ko'rib-bilib turar edi. Uning nazaridan aldovchi-

ning aldovi yashirinib qolmas va firibgarning firibi o'tmas, o'z farosati bilan haqgo'y va yolg'onchini ajrat tar edi. O'z ziyrakligi, tajribasi bilan chin (haq) nasihatgo'ydan soxta (nasihatgo'y)ni idrok etar, o'z afkori bilan sal bo'lmasa "uchar yulduz"ni to'g'ri yo'lga boshqarar, o'z farosati, mulohazalari bilan har bir bexato sayyora o'qini o'z orqasidan ergashtirar edi. Men dedim: "*Go'yo qarovchi ko'rganini o'z ko'zi bilan mushohida etgani kabi*".

U aql ko'zi bilan barcha ishlar oqibatining mushohididir. Agar u biror narsani amr qilsa yoki bir narsaga ishorat qilsa, u aslo qaytmasdi yoki u biror narsaga qasdlansa, beqarorlik, yengiltaklik va sustkashlikka mansub bo'lmaslik uchun o'z qat'iyati jilovini u narsadan sira buzmasdi. Men dedim:

*Agar u bir so'z aytsa yoki bir narsaga
ishorat qilsa,
Uning amrini shu (ish) xususida
uzil-kesil farmon deb bilaver.*

Uning laqablarini qo'shganlarida
Temurni yetti iqlim sohibqironi,
yer-u suvni idora qiladigan (zot),
podshohlar-u sultonlar jahongiri deb
atardilar...

Bo'lim

Temur olimlarga mehribon bo'lib,
sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tu-
tardi. Ulamolar va fozillarga to'la-
to'kis izzat ko'rsatib, ularni har qan-
day kimsadan batamom muqaddam
ko'rardi. Ularning har birini o'z mar-
tabasiga qo'yib, o'z ikrom-u hurmati-
ni unga izhor etardi. Ularga nisbatan
o'z muruvvati bisotini yoyardiki, bu
muruvvati uning haybati bilan aralash
edi. Ular bilan mazmunli bahs ham
yuritar ediki, bu bahsida insof-u him-
mat bo'lardi. Uning lutfi qahri ichiga
qorilgan bo'lib, qo'rsligi ezguligi ora-
siga qo'shilgan edi. She'r:

*Qudratni jam qilgan ikki xil
tam unda bo'lib,
Go'yo u, xursandchilik ham, xafachilik
ham edi.*

Yana aytilgan:

*Dushmanlariga nisbatan achchiq yuzli,
qabih,
Do'stlari uchun asal singari shirin
(so'z) u, xushta'b edi.*

Temur har qanday hunar va kasb bo'lmasin, agar unda biron fazilat va sharofat bo'lsa, shu kasb egalariga g'oyatda mehr qo'ygan edi. U tabiatan masxaraboz va shoirlarni yoqtirmas, munajjim-u tabiblarni (o'ziga) yaqin tutib, ular gaplariga e'tibor qilar va so'zlarini tinglardi. O'z fikrini peshlash maqsadida u muttasil shatranj o'ynardi. Uning himmati kichik shatranj (o'ynash)dan oliv bo'lib, u katta shatranj o'ynardi... Temur tarix (kitob)lari, xudoning rahmati va salomi bo'lg'ur anbiyolar qissalarini, podshohlar siyratlari va o'tgan salaflar haqidagi hikoyalarni doimo – safarda ham, xadarda ham o'qitib, qunt bilan tinglar edi. Bularning hammasi fors tilida edi...

Bo'lim

Temur tengi yo'q fe'l-atvorli, churqur mulohazali kishi bo'lib, uning tafakkur dengizining qa'ri yo'q va (uning) tadbiри tog'iga na tekisliguna g'adir-budur orqali yo'l topilardi. U yerlarning barcha tomonlarida o'z ayg'oqchilarini tarqatib, qolgan mulklerida esa josluslar qo'ygan edi... (Josuslarning) bunisi Qohirada, Mui ziyyada bo'lsa, unisi Damashqda, Shamiysoiyadagi so'fiylardan biri edi....

Bo'lim

Temurning mag'rurligi va ulug'-vorligidan, hurmatining shiddatidan shu ediki, tevarak-atrof podshohlari va sultonlari garchi xutbada mustaqil va pul zarb etishda mustabid, riyosat va boshqaruvda yagona, idora (qilish) va siyosat ishlari bilan (o'zlaricha) mashg'ul bo'la turib, xuddi Shirvon yerlarining podshohi Shayx Ibrohim, Xuroson viloyatlari sultoni Xoja Ali

ibn Muayyad at-Tusiy, Isfandiyor, ar-Rumiy va Ibn Qaramon, Kirmon hokimi Yaqub ibn Ali Shoh, u ham Mantasho hokimi, Arzinjon amiri Taharton, Fors va Ozarbayjon sultoni, Dasht, Xitoy va Turkiston podshohlari, Badaxshon marozibalari va Mozandaron marojihalari, xullasi kalom, Eron va Turon podshohlaridan (Temurga) itoat qilganlar uning huzuriga kelib, hadya va tuhfalar taqdim etsalar, xizmatkor va qullik ostonalariда uning chodirlaridan ko‘zga chalnadigan joyda adab va hurmat shartlarini ado etib o’tirardilar. Basharti, Temur ulardan birontasini (ko‘rishni) iroda etsa, farroshlardan birini unga yuborar yoki ular tarafiga choparini jo‘natar edi...

Bo‘lim

Temur Samarqandda ko‘pdan ko‘p bo‘stonlar barpo qilib, baland va mustahkam qasrlar bunyod etdi. Ularning har qaysisi g‘arobatli tar-

tibda, ko'rkam va ajib suvratda edi. Bo'stonlar asosini mustahkam qilib, fahomatli mevali ko'chatlar bilan ularni bezadi. Ulardan birini Eram bog'i, ikkinchisini Dunyo ziynati, yana boshqasini Firdavs jannati, unisi ni Shamol bog'i, bunisini Oliy jannat deb atadi. Shuningdek, ba'zi joylarni buzdirib, u bo'stonlardan har biri ichida bir qasr qurdirdi. Bu qasrlarning qay biriga o'z majlislarini, o'z suratini turli shakllarda: birida kulib turgan, ikkinchisida qahrlangan, o'zi qilgan janglar tasvirlarini, rasmiy tantanalardagi suratlarini; podshohlar, amirlar, sayyidlar, ulamolar va ulug'lar bilan suhbat qurgan majlislarini; sultonlarning uning huzu rida qo'l qovushtirib turishlarini, xizmat yuzasidan boshqa mamlakatlardan huzuriga kelgan ularning podshoh-u sultonlarining vakillarini, o'zining ov halqalari-yu yashirin saydalarini, Hind, Dashti (Qipchoq) va Ajam janglari-yu o'z zafarlari suratini, dushmanlarining qay

ahvolda yengilib qochganini, o‘z avlodlari, nabiralar, amirlari, qo‘sishinlari suratlarini, aysh-u ishrat majlislari va sharoblari, qadahlari-yu soqiylarini, o‘z ulfati qo‘sishqchilarining, turli maqomdagi g‘azalxonlik kuychilarining, huzuridagi sevgililari-yu (nikohidagi) pok xonimlarning va bularning boshqa uning bir-biriga o‘xshab, ulanib ketgan, uning butun umri mobaynida o‘zga mamlakatlarda voqe’ bo‘lgan hodisalar suratlarini tasvirlatdi. Bular hammasi hech bir noqissiz va ziyo-dasiz, qay tarzda yuz bergen bo‘lsa, shundayligicha aks ettirildi. Bundan maqsadi: o‘zining ishlaridan g‘oyibona xabardor bo‘lib, ularni o‘z ko‘zi bilan mushohada etmaganlarga yaqqol namoyon qilib ko‘rsatish edi.

Agar Temur biror tomonga otlanib, Samarqand (uning) qo‘sishinlari-yu yordamchilaridan xoli bo‘lib, o‘sha bo‘stonlar bo‘sh qolsa, shahar ahlidan badavlat-u miskinlar u (bo‘ston)-larga qarab yo‘l olardilar. Chunki bu

bog‘lardan ko‘ra yaxshi va ajoyib dam oladigan, bulardan ko‘ra rohatlanishga muvofiqroq va osoyishtaroq joy yo‘q edi. Bog‘lardagi shirin, mazali mevalar esa barchaga bab-baravar (tekin) edi. Chunki mevalardan bir qintori ham arzimagan bahoga bo‘lsa-da, sotilmadi. Shuningdek, Temur Samarqandning atroflari va etaklarida bir necha qasabalar bunyod etib, ularni shaharlar kelinchaklari bo‘lgan Misr (Qohira), Dimashq, Bag‘dod, Sultoniya, Sheroz kabi azim va markaziy shaharlar nomi bilan atadi. Samarqand bilan Kesh (Shahrisabz) o‘rtasida bir bo‘ston barpo etib, unda bir qasr qurdirdi va uni Taxta Qoracha deb atadi. Hikoya qiladilarki, qasr qurvuchilaridan birovining biyasi yo‘qolib, olti oy shu bo‘stonda o‘tlab yurgandan keyin uni topib olgan.

Ibn Xaldun

“Tarjimayi hol”dan

Amir Temur bilan uchrashuv

Amir Temur Rum mamlakatini zabt etib, Shomga qaytganligidan Misr (ahli) xabardor bo‘lgach, Sultan (Faraj) o‘z askarlarini to‘pladi. Devonul-atoni ochib, ularga Shomga yurishni e’lon qildi. O’sha paytda men o‘z vazifamdan chetlashtirilgan edim...

Oldin Mag‘ribda ekanimda (Teturning) kelib-ketishi haqida ko‘p bashoratlar eshitgan edim. Ikkita samoviy (jism)ning qironi, ya’ni to‘g‘ri kelib qolishi haqida gapiruvchi munajjimlar, musallasada (bo‘ladigan) o’ninchи qironni kutayotgan edilar hamda u 764-(1374–1375) yilda (sodir bo‘lishi) kutilayotgan edi. 761-(1359–1360) yili bir kuni Fas (shahridagi) Qaraviyyin masjidida Qustantiniyalik xatib Abu Ali Badisni uchratib qol-

dim. U (munajjimlik) ilmining bilimdoni edi. Kutilayotgan qiron va uning oqibati haqida undan so'radim. U (qiron) shimoli sharq tomonlardagi chodirlarda yashovchi sahroyi xalqdan kuchli lashkarboshi chiqib, podshohliklar va davlatlar ustidan g'alaba qozonib, ko'p yerlarni zabit etishidan dalolat ekanligini aytdi. Qachon bo'lishi haqidagi savolimga "784-(1382-1383) yilda uning haqidagi xabarlar tarqaldi", deb javob bergen edi. Xuddi shu gapni menga Ovrupo podshosi Ibn Alfonsning tabibi va munajjimi Ibn Zarzar al-Yahudiy ham yozgan edi. Rahmatli shayxim, ma'qulot (ratsionalizm)ning imomi Muhammad ibn Ibrohim al-Obiliy bilan bu xususda gaplashganimda, yoki so'ranganimda, u kishi: "Bu yaqinda sodir bo'ladi, sen tirik bo'lsang, albatta, ko'rasan", deb javob bergen edi...

... Siz olamning sultonni, dunyoning podshohisiz. Odam (Ato) davridan to shu paytgacha Siz kabi podshoh chiq-

qan emas. Men o'ylamasdan gapiradi-ganlar (xili)dan emasman, balki ilm ahlidanman... Ilm ahlining avvalgilari ham, keyingilari ham birday ittifoq-q'a kelganlarki, insoniyatning ko'pchilik qismi ikki guruhg'a bo'linadi, ya'ni arablar va turklar. Arablar o'zlarining payg'ambari (Muhammad alayhissalom) dini (atrofi)ga birlashganlarida qanday kuchli bo'lganliklaridan sizlarning xabaringiz bor. Turklarg'a keladigan bo'lsak, ularning Eron podshohlariga qarshi kurashlari, podshoh Afrosiyobning (eronliklar qo'lidan) Xu rosonni tortib olishi, ularning podshohlikdagi (chuqur) ildizlaridan shahodatdir. Asabiyatda ularga yer yuzidagi hech bir podshoh, Xusrav ham, Qaysar ham, Iskandar ham, Buxtannasr ham teng kela olmaydi. Xusrav forslarning kattasi va shohidir. Lekin forslar qayerda-yu turklar qayerda! Qaysar va Iskandar Rum podshohlaridir. Lekin rumliklar qayerda-yu, turklar qayerda! Buxtannasr bobiliylar va nabotiylarning

kattasidir. Lekin ular turklarga teng kela olarmidi? Bular hammasi men bu podshoh (Temur) haqida aytgan gaplarimning yorqin isbotidir...

Misrga qaytish
“Mag’rib podshosiga maktub” dan

... Bu qavmning adadi behisobdir. Agar million desang mubolag‘a bo‘l-maydi, undan kam deb aytolmaysan. Agar ular yerga chodir tiksalar, butun maydonni to‘ldiradi. Lashkarlari keng yerda yursa ularga fazo ham tor bo‘lib qoladi...

Temur ularning eng kuchli va bu-yuk podshohlaridandir. Ba’zilari uni (hamma narsani) biluvchi desa, ba’zilari uning ahli baytga hurmatini ko‘rib, rofiziyl e’tiqodli deb o‘ylashadi. Boshqa birovlar esa uni sehr (qilishni) o‘rgangan deyishadi. Lekin bu gaplarining hammasi hech narsaga arzimaydi. Aslida u o‘ta aqli, bilimdon, farosatli, ko‘p bahslashadigan, bilsa ham,

bilmasa ham so‘zida qattiq turadigan (kishi) edi. Yoshi oltmisht-yetmishtlar o‘rtasida bo‘lib, o‘ng tizzasi yaxshi ishlamas edi. Eshitishimcha, yoshlik paytlarida nayzadan yaralangan ekan.

Mulk Allohnikidur va uni o‘z bandalaridan xohlagan kishisiga beradi.

Klavixo

Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403–1406)

71. Boyazid, Murod va Temurbek ismlarining ma’nosи

Temurbek mag‘lub etgan turk podshosining nomi Aldayri (Yildirim) Boyazid, ya’ni Chaqmoq Boyazid degan ma’noni anglatadi. “Chaqmoq” turk tilida «yildirim» deb ataladi. Boyazid uning haqiqiy ismi edi. Otasini Amirat (Murod) deb atar edilar... Shuningdek, Temurbekning asl ismi ayrimlar ataganidek Temurlan emas, Temurbekdir. Chunki Temurbek ularning o‘z tilida «Temir podsho»

degani, podsho esa ularining tilida «bek». Temurlan yuqoridagiga bata-mom teskari ma'noni anglatadi. Uni tahqirlash ma'nosida Temurlan, ya'ni oqsoq Temur deb ataydilar...

Muiniddin Natanziy

Muntaxab ut-tavorixi Muiniy

*Amir Sohibqiron saltanat taxtiga
chiqqandan so'ng ro'y bergen jami
fathlar zikri*

Amir Sohibqiron Balxni fath etish va u yerdagi boshqa yumushlarni saranjom qilgach, jo'nash jilovini dorussaltana Samarqand tarafga burdi. Har qayerdan kelgan amirlarga o'z xohishlariga binoan vatanlariga qaytishga ruxsat berdi. Amir Sohibqiron muzni ko'prik qilib, Jayhun daryosidan o'tdi va Shahrисabzda bir necha kun turgach, Samarqandga yo'l oldi. Ubu tabarruk shaharni o'zining taxtgohi qilib tayinladi va shahar devorlarini

qurdirdi. Uning sharif zoti istiqomat qilmog‘i uchun bu yerda bir qator uylar bino qilishdi. Samarqand qisqa fursatda shunchalik gullab yashnadiki, oliv jannatga ta’na qilib, yer yuzining behishtiga aylandi. Shaharning tevarak-atrofida ham ko‘rkam bog‘lar va dilkash imoratlar bunyod etishdi. Rub‘i maskunning barcha joylaridan juda ko‘p odamlar bu muborak shahar tomon otlanib, hazrat Amir Sohibqironningadolati va marhamati soyasidan panoh topishdi.

*Hazrat sulton Sohibqiron tabaqasi:
uning tartibi, ahvoli va xislatlari
haqida xabarlar*

Onhazratning fe’li va axloqi, tartibi va yasog‘i haqida andoq zikr qilinadi. Uning mulk-u millat ishlari hamda din-u davlatning zarur yumushlarini hal etish yuzasidan ko‘rsatgan go‘zal intilishlari va tahsinli tirisishchlari, Xitoy sarhadidan to Rum-

ning uzoq chekkasiga va Faranggacha,
Hind o'liasi tugagan joydan Mag'rib
va Zang daryolari boshlanishigacha,
...musaxxar va musallam qilgan yor-
qin niyatlari va to'g'ri tadbirlari tilga
olinadi...

Devon ishlari tartibi va sulton-
lik qilish tarzlari haqida shunday bir
qoidani joriy etdiki, u to olam in-
qirozigacha aqli komil vazirlar uchun
dastur va tajribali hokimlar uchun
yorliq bo'la oladi. Uning davlati va
iqboli yulduzi (balqishi) shu dara-
jada ediki, bir otliq bilan bir di-
yorni olar, bir so'z bilan viloyat-
larni zabt etar, tahdid qilishi bila-
noq tish-tirnog'igacha qurollangan
lashkarni tor-mor keltirar, bir do'q
bilan son-sanoqsiz qo'shinni joyidan
qo'zg'atardi... Amir Sohibqiron (um-
rining) haqiqiy mazmuni va uning
nomdor urug'i rivoyatining to'g'ri
bayoni maxfiy qolmasinkim, ul ki-
shining qal'alarni olguvchi gurzisi-
ning zarbasi va jahonni zabt etuv-

chi qilichining hamlasi taqdir tilagi, azal hukmi, qazo va qadar irodasiga muvofiq sodir bo'lgandi. Siyosatining qattiqligi, istilosining odilligi va afzalligi, lashkar tortmoq va jahonni idora qilmoq tartiblarikim, bular davlat sobitligining muqaddimasi va abadiy saodat bardavomligining qoidasidir, ul kishi tomonidan barqaror va yuksak bir darajaga yetkazilgan edi...

Uning dohiyona va hikmatli tadbirlaridan yana biri shu ediki, fuqaro va ilm toliblarining vaqflar va madrasalarga bo'lgan huquqlarini (har kimning) haqiga loyiq va vaqf qiluvchining shartlariga muvofiq tayin qilar, qat'yan va aslo vaqf moliga daxl etmasdi. Vaqflar molidan uning xazinasi uchun hech narsa olmaslik haqida vazirlarga farmon bergan edi. Ilm-u hikmat ahli va fan arboblariga g'oyatda e'tiborli edi. Ularni e'zoz-u ikrom qilishda mubolag'alar ko'rsatardi. Tarix kitoblarini eshitish orqali qavmlar nasabi va sharhi hol-

larini, turk, arab va ajam podsholaring bo'lgan joylari va qilgan ishlarini hamda bu ilmning tarmoqlarini juda chuqur egallagan edi. Munavvar ko'ngli va muborak xotiri bir ravshan ko'zguga aylangan bo'lib, sirlar aksi, fikrlar tubi, ishlar oqibati va tadbirlar xotimasi oftob shu'lasi yanglig' uning nazdida oydin va yaqqol edi. Uning saodatli irodasi tasarrufi doirasiga kirgan barcha mamlakatlardagi mayxonalar va mayfurushlik do'konlarini yoptirdi. Holbuki, Bag'dodning "Suk us-sulton"idan, shuningdek, Tabrizdan, Sultonianing uzun ko'chasidan, Sherozning "Dor ul-lataf"idan, Kirmonning quyi ko'chasi va Xorazmdagi mayxonalardan har kuni bir necha tuman mablag' yig'ilardi.

Yana uning majlislarida ilmiy masalalar bahsi juda ko'p bo'lib turardi. Nozik masalalarni u yaxshi tushunar, aksar hollarda (uning fikri) asosli va to'g'ri bo'lar edi. Tib va nujum ilmla-

rining mashhur masalalarida ko‘pincha hozirjavoblik qilardi. Axloqining go‘zalligi shu darajada ediki, uning so‘zlari va raftorining husni jami fazilatlar bobining debochasi bo‘ldi. Uning yurish-turish tarzi go‘zal xulqlar va odatlar daftarining sarlavhasi bo‘ldi. O‘zining aksar vaqtini sayidlar, olimlar va mashoyixlar bilan suhbatlashishga sarf qilardi.

Fasih Ahmad Havofiy

Mujmali Fasihiy

*Yetti yuz o‘ttiz oltinchi
(1335–1336) yil*

Amir sohibqiron Amir Temur ko‘ragon ibn amir Tarag‘oy ibn Burqul ibn Ilangiz ibn Ijil (yoki Iyjol) ibn Qarochar no‘yon ibn So‘g‘u – Sichon ibn Erdamchi ibn Qacho‘li no‘yon ibn To‘manayxon ibn Boysunqurxon ibn Qayduxon ibn Dutumaninxon ibn Bo‘qaxon ibn Bo‘doncharxon (yoki Bo‘zunjarxon) ibn Alonquvo xotun

sha'bon oyining yigirma beshinchisi (1336-yil, 9-aprel)da Keshda tug'ildi. Uning tug'ilishi, taxtga o'tirishi va vafoti haqida bunday deyilgan:

Sulton Temur – u (shaxs)ki, unga o'xshash podshoh bo'lмаган.

Yetti yuz o'ttiz oltinchi (1335–1336) yil dunyoga keldi.

Yetti yuz yetmish birinchi (1369–1370) yil taxtga o'tirdi.

Sakkiz yuz yettinchi (1404–1405) yil bu dunyoni tark etdi.

Alisher Navoiy

Majolis un-nafois

Yettinchi majlis

Salotini izom va avlodi vojub ul-ehtiromlari zikridakim, ba'zi yaxshi mahallarda xub bayt o'qubturlarkim, filhaqiqat o'zlari aytqondek xubdur va ba'zi nazm latoyifiga mashg'ul bo'lubturlarkim, ul dog'i matlub va marg'ubdur.

Muluk shajarlarining bo'stoni va salotin gavharlarining ummoni, xoqoni jahongiri sohibqiron, ya'ni:

Temur ko'ragon – agarchi nazm aytmoqqa iltifot qilmaydurlar, ammo nazm va nasrni andoq xub mahal va mavqedan o'qubdurlarkim, aningdek bir bayt o'qug'oni ming yaxshi bayt ayt-qoncha bor. Tabarruk haysiyatidinkim, ul hazratning muborak ismi bu muxtasarda bo'lg'ay va ul latoyifdin bira bila ixtisor qililur...

...Ul hazratning g'azabi lutfqa mu-baddad bo'lib, fazl va kamol ahli sari boqib, bu misrani ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi biym chang bor mushaf zad.

(Tarjimasi: *Qalandar qo'rquvdan Qur'onga chang soldi*)

Zahiriddin Muhammad Bobur

Boburnoma

*Vaqoi'i sanayi salos va tis'a mia
To'qquz yuz uchinchi (1497-1498)
yil voqealari*

Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinch iqlimdindur... Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog'iy qahr va g'alaba bila munga dast topmag'on uchun baldayi mahfuza derlar. Samarqand hazrati amirul mo'minin Usmon zamonida musulmon bo'lg'ondur. Sahobadin Qusam ibn Abbos anda borg'ondur. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo Mozori Shohg'a mashhurdir. Samarqandni Iskandar bino qilg'ondur. Mo'g'ul va turk ulusi Semirqand derlar. Temurbek poytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug' podshoh Samarqandni poytaxt qilg'on emastur. Qo'rg'onini, fasilning ustidin buyurdumkim, qadam urdilar. O'n ming olti yuz qadam chiqtı.



FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

Manbalar:

Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм. 1405–1429 йиллар воқеалари. Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2008.

Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд иккинчи ва учинчи қисмлар. 1429–1470 йиллар воқеалари. Форс тилидан А. Ўринбоев таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2008.

Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис // *Алишер Навоий.* Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 13-том. Матни нашрга тайёрловчи С. Фаниева. – Т.: Фан, 1997.

Амир Темур Кўрагон. Зафар йўли (Таржимаи ҳол). Нашрга тайёрловчи Ашраф Аҳмад. – Т.: Нур, 1992.

Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси (“Малфузоти Темурий”). Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Бобобеков, Ҳ. Бобоев, А. Куранбеков. – Т., 2000.

Амир Темур Кўрагон. Темур қиссаси (“Қиссаи Темурий”, “Темур эсдаликлари”, “Малфузоти Темурий”), Нашрга тайёрловчилар: Ҳ. Бобобеков, Ҳ. Бобоев, А. Куранбеков, З. Бобокалонов. – Т.: Фан, 2004.

Амир Темур ва Улугбек замондошли-ри хотирасида. Б. Аҳмедовнинг илмий таҳрири остида. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

Амир Темур аждодлари (Шарафуддин Али Яздийнинг “Зафарнома” асаридан). Форс тилидан О. Бўриев таржимаси. – Т.: Комуслар Бош таҳририяти, 1992.

Амир Темур васияти. Нашрга тайёрловчи: Тўра Мирзо. – Тошкент: Faфур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991.

Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. – М.: Издательство восточной литературы, 1958.

Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. П. Шамсиев, С. Мирзаев ва Э. Мано нашрлари асосида қайта нашрга тайёрловчи С. Ҳасанов. – Т.: Шарқ, 2002.

Ибн Арабшоҳ. Амир Темур тарихи. [Ажоиб ал-Мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари)]. I-II китоблар. Араб тилидан У. Уватов таржимаси. – Т.: Мехнат, 1992.

Мирза Мухаммад Ҳайдар. Тарихи Рашиди. Введение, перевод с персидского А. Урунбаева, Р. Джалиловой, Л. Епифановой. – Т.: Фан, 1996.

Мирзо Улугбек. Тўрт улус тарихи. Форс тилидан Б. Ахмедов, Н. Норқулов ва М. Ҳасаний таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1994.

Муиниддин Натанзий. Мунтахаб уттаворихи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси). Форс тилидан Гулом Карими таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2011.

Муҳаммад Ҳайдар Мирзо. Тарихи Рашидий. В. Раҳмонов ва Я. Эгамова таржимаси. – Т.: Шарқ, 2010.

Низомиддии Шомий. Зафарнома. Форс тилидан Ю. Ҳакимжонов таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 1996.

Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403–1406). Перевод со староиспанского И.С Мироковой. – М. Наука, 1990.

Руи Гонсалес де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат

кундалиги (1403–1406 йиллар). Рус тилидан О. Тоғаев таржимаси. – Т.: Ўзбекистон, 2010.

[Салоҳиддин Тошкандий.] Темурнома (Амир Темур Кўрагон жангномаси). Нашрга тайёрловчи П. Равшанов. – Т.: Чўлпон, 1990.

Темур тузуклари (ўзбек, инглиз, француз т.). Форсчадан А. Софуний ва Х. Кароматов таржимаси. Инглиз тилига М. Деви таржимаси. Француз тилига Л. Лангле таржимаси. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1996.

Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. Тузувчилар: А. Ўринбоев, О. Бўриев. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1997.

Уложение Тимура. – Т.: Фан, 1968; – Т.: Чўлпон, 1992.

Фасих Ҳавафи. Муджмали Фасихи (Фасихов свод). Перевод с персидского Д. Юсуповой. – Т.: Фан, 1980.

Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома (Мовароуннахр воқеалари. 1360–1370). Форс тилидан О. Бўриев таржимаси. Масъул муҳаррир ва нашрга тайёрловчи А. Ўринбоев. – Т.: Камалак, 1994.

Шарафуддин Али Яздий. Зафарнома. Форс тилидан эски ўзбек тилига Муҳаммад Али ибн Дарвеш Али Бухо-

рий таржимаси. Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи А. Ахмедов, Х. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997.

Ўринбоев А. Абдураззоқ Самарқандийнинг Ҳиндистон сафарномаси. – Т.: Фан, 1960.

Хофиз Таниш ал-Бухорий. Абдулланома (Шарафномайи шохий). 2-китоб. Форс тилидан С. Мирзаев ва Ю. Ҳакимжонов таржимаси. – Т.: Шарқ, 2000.

Адабиётлар:

Каримов И. Туркистон – умумий уйимиз. – Т.: Ўзбекистон, 1995.

Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.

Абдураимов М. Темур ва Тўхтамиш. – Т.: Faфур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000.

Абдураҳмонов А. Улуғбек академијаси. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994.

Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2000.

Алимов Ў. Амир Темур давлати байроғи // «Мозийдан садо», 2010, № 2–3.

Амир Темур жаҳон тарихида. Илмий гурӯҳ раҳбари Н. Ҳабибуллаев. – Т.: Шарқ, 1996.

Ашраф Аҳмад. Улугбек Муҳаммад Тарағай (1394–1449). – Т.: Абдулла Кодирий номидаги Ҳалқ мероси нашриёти, 1994.

Аҳмедов Б., Мукминова Р., Пугаченкова Г. Амир Темур (Жизнь и общественно-политическая деятельность). – Т.: Университет, 1999.

Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т.: Ўзбекистон, 1997.

Дадабоев Ҳ. Амир Темурнинг ҳарбий маҳорати. – Т.: Ёзувчи, 1996.

Иванин М. Икки буюк саркарда: Чингизхон ва Амир Темур. Рус тилидан А. Маҳкамов таржимаси. – Т.: Фан, 1994.

Исмоил Ака. Буюк Темур давлати. Туркчадан Т. Қаҳҳор таржимаси. – Т.: Чўлпон, 1996.

Люсьен Кэрэн. Амир Темур салтанати. Француз тилидан Б. Эрматов таржимаси. – Т.: Маънавият, 1999.

Муҳаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати (Тарихий очерк). – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994; 2-нашири. – Т.: Қомуслар Бош таҳририяти, 1996.

- Муҳаммаджонов А., Ражабов К.*
Амир Темур. – Т.: Ўзбекистон, 2013.
- Мўминов И.* Амир Темурнинг Ўрта
Осиё тарихида туттган ўрни ва роли. –
Т.: Фан, 1968.
- Нуриддинов М.* Бобурийлар судола-
си. – Т.: Фан, 1994.
- Темур ва Улуғбек даври тарихи. Бош
муҳаррир А. Асқаров. – Т.: Қомуслар
Бош таҳририяти, 1996.
- Уватов У.* Соҳибқирон араб муар-
рихлари нигоҳида. – Т.: Шарқ, 1997.
- Файзиев Т.* Темурийлар шажараси. –
Т.: Ёзувчи – Хазина, 1995.
- Файзиев Т., Муҳаммадхўжаева Н.*
Мовароуннахрда хукмронлик қилган те-
мурий шаҳзодалар. – Т.: Мерос, 2002.
- Холбеков М.* Амир Темурнинг Ев-
ропа қироллари билан ёзишмала-
ри. – Самарқанд, 1996.
- Череванский В.* Амир Темур. Бола-
лиги. Жанговар йўли. Вафоти (тарихий
роман). Русчадан Xуршид Дўстмуҳаммад
ва Амирқул Карим таржимаси. – Т.:
Ёзувчи, 1993.
- Ҳабибуллаев А.* Амир Темур ва ибн
Халдун. – Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар
уюшмаси Адабиёт нашриёти, 2002.
- Ҳайитметов А.* Темурийлар даври
ўзбек адабиёти. – Т.: Фан, 1996.



MUNDARIJA

<i>So'zboshi</i>	4
Sohibqironning tug'ilishi va tarix shohsupasiga chiqishi.....	6
Movarounnahr uchun kurash	16
Amir Temur – markazlashgan davlat asoschisi	27
Amir Temur – Turon davlati hukmdori.....	37
Turon mamlakati xavfsizligi yo'lida	56
Amir Temurning harbiy yurishlari va sarkardalik mahorati	65
Davlat boshqaruvi	75
Mamlakat obodonligi	83
Amir Temur diplomatiyasi	91
Amir Temur va avlodlari shajarasi.....	96
Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixida tutgan o'rni.....	99
<i>Amir Temur vasiyati</i>	106
"Temur tuzuklari"dan	108

Temuriylar davri manbalarida	
Amir Temur tavsifi	125
<i>Ibn Arabshoh.</i> Ajoib al-maqdur	
fi tarixi Taymur (Temur	
tarixida taqdir ajoyibotlari)	125
<i>Ibn Xaldun.</i> "Tarjimayi hol"dan	136
<i>Klavixo.</i> Samarqandga – Amir	
Temur saroyiga sayohat kundaligi	
(1403–1406)	140
<i>Muiniddin Natanziy.</i> Muntaxab	
ut-tavorixi Muiniy	141
<i>Fasih Ahmad Havofiy.</i>	
Mujmali Fasihiy	146
<i>Alisher Navoiy.</i> Majolis un-nafois	147
<i>Zahiriddin Muhammad Bobur.</i>	
Boburnoma.....	149
<i>Foydalanolgan manba va</i>	
<i>adabiyotlar ro'yxati</i>	150



Tarix va shaxs
Ilmiy-ommabop nashr

ABDULAHAD MUHAMMADJONOV,
QAHRAMON RAJABOV

AMIR TEMUR

Ikkinchı nashri

Muharrir *J. Matyoqubov*
Badiiy muharrir *B. Zufarov*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Musahhil *G. Aripova*
Sahifalovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyası AI № 158.14.08.2009.
Bosishga 2015-yil 19-oktabrda ruxsat etildi.
Bichimi 70x108¹/₆₄. Ofset qog'ozı. «Virtec
Peterburg» garniturasida ofset bosma usulida
bosildi. Shartli bosma tabog'i 3,5.
Nashr tabog'i 4,21. Adadi 3000 nusxa.
Buyurtma №15-761.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10
e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

M-81 **Muhammadjonov A.**

Amir Temur:/A.Muhammadjonov,
Q.Rajabov. – Toshkent: «O'zbekiston»,
2015. – 160 b. – (Tarix va shaxs).

ISBN 978-9943-01-908-9

Ushbu kitobda yirik davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temurning hayot yo'li, zafarli harbiy yurishlari, shaxsiyati, siyosiy faoliyati, jahon davlatchiligi tarixida tutgan o'rni sodda va qiziqarli uslubda yoritilgan.

Kitob keng kitobxonlar ommasiga mo'ljal-langan.

UO'K: 94(575)(092) Amir Temur

KBK 63.3(50')4